

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI



BIRLASHIB, BUYUK TARIX YARATAMIZ!

**PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN
TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQIGA SHARH**

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2026



KIRISH

HAR BIR XALQNING TARIXIDA SHUNDAY SANALAR BO'LADIKI, ULAR SHUNCHAKI TAQVIM VARAG'IDAGI RAQAM EMAS, BALKI BUTUN BIR MILLATNING QALB URISHINI, ORZU-UMIDLARINI VA KELAJAKKA BO'LGAN ISHONCHINI O'ZIDA JAMLAYDI. O'ZBEKISTON XALQI UCHUN MANA SHUNDAY MUQADDAS VA ULUG' SANA – DAVLAT MUSTAQILLIGI BAYRAMIDIR.

Mamlakatimizda bu yil mustaqilligimizning o'ttiz besh yilligi o'zgacha bir shukuh va tantana bilan nishonlanmoqda. Ayniqsa, 2026-yil 28-avgust kuni Yangi Toshkentda bo'lib o'tgan tantanali marosim muqaddas bayramning milliy davlatchiligimiz va kelajak taraqqiyotimiz uchun nechog'li ahamiyatli ekanini yaqqol namoyon etdi.

«Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!» – ushbu da'vat Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasining bosh g'oyasini ifodaladi. Bu fikr xalqimizni umumiy maqsad atrofida birlashishga, erishilgan yutuqlarni qadrlashga va Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi

bosqichida faol bunyodkor bo'lishga chorladi.

Ma'ruzaning mazmun-mohiyatini har bir o'zbekistonlik bilishi muhim. Chunki milliy taraqqiyot yo'lini anglagan insonda Vatan taqdiriga daxldorlik, bugungi kunga ishonch va kelajak oldidagi mas'uliyat tuyg'usi kuchayadi. Ayniqsa, yigit-qizlarimiz mazkur ma'ruzada ifoda etilgan tarixiy haqiqatlar, strategik maqsadlar va yuksak da'vatlardan g'oyaviy kuch-qudrat olishi zarur. Yoshlar o'zlarini buyuk o'zgarishlarning shunchaki kuzatuvchisi emas, balki Yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratadigan hal qiluvchi kuch sifatida anglashi lozim.

Prezidentimiz bayram tabrigini butun xalqqa – yosh-u keksaga, erkak-u ayolga, yurtidagi va xorijdagi har bir vatandoshi-

mizga birdek yo'lladi: **«Aziz xalqimiz, jumladan, muhtaram nuroniylarimiz, shijoatli yoshlarimiz, mo'tabar ayollarimizni, yurtimizdagi barcha millat va elat vakillarini, xorijdagi vatandoshlarimizni ushbu ayyom bilan chin yurakdan samimiy tabriklayman»**. Bu so'zlarda butun bir millatni yagona oila sifatida ko'rish, har bir insonning qadrini ulug'lash falsafasi mujassam.

Mazkur sharh Prezident nutqining ana shu teran mazmunini, unda ilgari surilgan g'oyalar, raqamlar, rejalar va orzu-intilishlarni keng jamoatchilikka yetkazish, nutqda qo'yilgan vazifalarning mohiyatini ochib berish maqsadida tayyorlandi. Sharh davomida davlatimiz rahbarining o'z so'zlari asl holida, to'liq iqtiboslar tarzida keltiriladi va har bir masalaning zamirida yotgan tarixiy, ijtimoiy hamda strategik ahamiyat tahlil qilinadi.

O'ttiz besh yil – bir inson umrida ham, bir davlat tarixida ham katta davr. Bu davr ichida bir avlod tug'ilib, voyaga yetdi, bilim oldi, oila qurdi va mamlakat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha boshladi. Mustaqillikning ilk kunlarida dunyoga kelgan chaqaloqlar bugun o'ttiz yoshdan oshgan, o'z sohasining yetuk mutaxassislari, tadbirkorlar, olimlar, ustozlar va ota-onalarga aylandi. Ana shu avlodning qalbida mustaqillik eslanadigan emas, yashaladigan, har kuni his qilinadigan haqiqatdir. Prezidentning bayram nutqi

aynan shu avlodga, uning erishgan yutuqlari va oldida turgan buyuk vazifalariga bag'ishlangan.

Mustaqillik – bu inson uchun havo va suv kabi zarur ne'matdir. Uni qo'lga kiritmaguncha, ne'matlaridan bahramand bo'lmaguncha uning qadrini to'la anglash qiyin, ammo u bo'lmasa, hayot o'z ma'nosini yo'qotadi. Ozodlikda yashayotgan inson ko'pincha buni tabiiy hol deb qabul qiladi, holbuki, ana shu erkinlik uchun ajdodlarimiz asrlar davomida kurash olib borgan, ko'plab fidoyilar jonini fido qilgan. Shu bois mustaqillikni qadrlash, uni asrash va mustahkamlash har bir yurtdoshimizning muqaddas burchidir. Prezidentimizning bayram nutqi ana shu qadrlash tuyg'usini har bir inson qalbida uyg'otishga, mustaqillik ne'matining naqadar ulug' ekanini yana bir bor anglatishga xizmat qiladi.

Tantanali marosim nutqining o'ziga xos xususiyatlari bor: u bir vaqtning o'zida ham bayram tabrigi, ham hisobot, ham dastur, ham murojaatdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu nutqida bularning hammasi mujassamlashgan: unda bayram shukhi va samimiy tabrik ohangi o'tgan yo'lning xolis tahlili bilan, erishilgan natijalarning aniq raqamlari esa ertangi kunga qaratilgan dadil rejalar bilan tabiiy tarzda qorishib ketgan. Nutqni diqqat bilan o'qigan har bir kishi unda mamlakatning kechagi, bugungi

va ertangi kuni yagona mantiqiy zanjirda bog'langanini ko'radi. Mana shu yaxlitlik – nutqning eng kuchli jihati va uning tarixiy hujjat sifatidagi qiymatini oshirgan.

Nutqning yana bir e'tiborli tomoni uning tili va uslubidadir. Davlatimiz rahbari murakkab iqtisodiy va siyosiy masalalarni oddiy, tushunarli va samimiy tilda bayon etadi. U xalqqa yuqoridan turib emas, balki yonma-yon, yelkadosh bo'lib murojaat qiladi. Nutqdagi «fikrimga qo'shilasiz, albatta», «aziz farzandlarim», «qadrli do'stlar» kabi ibora va murojaatlar davlat rahbari bilan xalq o'rtasidagi masofani olib tashlaydi, ularni yagona oila a'zolaridek yaqinlashtiradi. Ana shunday samimiy va iliq ohang nutqning har bir tinglovchi va o'quvchi qalbiga yetib borishini ta'minlaydi.

Ushbu sharhda nutqda ilgari surilgan har bir g'oya, e'lon qilingan har bir raqam va belgilangan har bir reja ketma-ket, o'z tuzilishiga mos ravishda tahlil qilinadi. Har bir bo'limda avvalo davlatimiz rahbarining o'z so'zlari asl holida keltiriladi, so'ngra ushbu so'zlar zamirida yotgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy mazmun ochib beriladi. Shu tariqa o'quvchi nutqning nafaqat satrlarini, balki uning ostidagi teran ma'nolarni ham chuqur anglash imkoniga ega bo'ladi.

Sharh ziyolilar, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari, yoshlar yetakchilari,

targ'ibotchilar, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlariga mo'ljallangan. U ma'ruza mazmunini aholiga yetkazish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, targ'ibot uchrashuvlari, darslar, seminarlar, davra suhbatlari, tele-radio eshittirishlar va ijtimoiy tarmoqlar uchun mazmunli materiallar tayyorlashda metodik manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Sharhga ma'ruzaning asosiy mazmunini vizuallashtiruvchi infografikalar ham ilova qilingan. Ularda tarixiy taraqqiyot bosqichlari, Yangi O'zbekistondagi islohotlar natijalari, ustuvor strategik yo'nalishlar, milliy maqsadlar va ularning o'zaro bog'liqligi ixcham va ko'rgazmali shaklda ifodalgan. Infografikalar murakkab ma'lumotlarni tez anglash, asosiy fikrlarni xotirada saqlash va ularni turli auditoriyalarga ta'sirchan tarzda yetkazish imkonini beradi.

Mazkur sharh o'quvchini faqat xabardor qilishni emas, balki anglashdan ishonchga, ishonchdan faol ishtirokka, faol ishtirokdan esa bunyodkorlikka yetaklashni ko'zda tutadi. Zero, Vatanimizning yangi buyuk tarixi har bir yurtdoshimizning bilimi, mehnati, jasorati va fuqarolik mas'uliyati bilan yaratiladi. Yangi O'zbekistonning oltin davri uzoq kelajakdagi orzu emas, balki bugun barchamiz birgalikda bunyod etayotgan tarixdir.





YANGI O'ZBEKISTONNING KUCH-QUDRATINI NAMOYON ETADIGAN CHINAKAM TARAQQIYOT MARKAZI

2026-YIL

2026-yil mamlakatimiz tarixida katta va unutilmas voqealarga boy yil sifatida muhrlanib qolmoqda. Bu yil Sohibqiron Amir Temur bobomizning 690 yilligi, Alisher Navoiy hazratlarining 585 yilligi va muqaddas Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanmoqda. Ana shu uchta ulug' sananing bir yilda tutashishi o'zi bir ramz – u o'tmishning buyukligi, ma'naviyatning teranligi va bugungi erkin taraqqiyotning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Amir Temur milliy davlatchiligimizning, Alisher

Navoiy milliy tilimiz va adabiyotimizning, mustaqillik esa milliy erkinligimizning tim-solidir. Demak, 2026-yil bir vaqtning o'zida davlatchiligimiz, madaniyatimiz va ozodligimizni ulug'laydigan yil bo'lmoqda. Bu tasodif emas, balki millat o'z tarixiy ildizlari, buyuk ajdodlari va bugungi erkin hayotini yaxlit bir butunlikda angelayotganining ifodasidir.

Ana shunday ma'naviy uyg'unlik har bir yurtdoshimiz qalbida g'urur, iftixor va kelajakka ishonch tuyg'usini mustahkamlaydi. Mustaqillik bayrami esa milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yanada yuksaltiradi.

2026-yil — tarixiy voqealarga boy yil



Prezidentimiz bu bayramning nechog'li ulug' ekanini alohida ta'kidlab, uning Yangi Toshkentda o'tkazilayotganini tarixiy voqea sifatida baholadi. Davlatimiz rahbari shunday dedi: **«Eng ulug' bayramimiz Yangi Toshkentda o'tkazilayotgani tantana shukuhini yanada oshirmoqda»**. Darhaqiqat, bayramning aynan shu makonda nishonlanishi bejiz emas, bu yerda kelajakda dunyo ilm-fani, ta'lim va madaniyatining yirik markazini barpo etish ko'zda tutilgan.

ILM-MA'RIFAT MASKANLARI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Bayram arafasida mamlakatimizda chinakam ma'rifat bayrami ham bo'lib o'tdi. Prezidentimiz bu haqda faxr bilan so'zlab, shunday dedi: **«Kelgusida ilm-fan, ta'lim va madaniyat markazi bo'ladigan ushbu hududda kuni kecha Yangi O'zbekiston universiteti, Nizomiy Ganjaviy nomida-gi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, O'zbekiston milliy kutubxonasining muhtasham binolarini ishga tushirdik»**.

Mustaqillik bayrami arafasida birinchi navbatda aynan ilm-ma'rifat maskanlarining ochilishi chuqur ma'no kasb etadi. Bu muhtasham dargohlarda ilg'or fikrli, tashab-



buskor va yuksak intellektual salohiyatga ega yoshlarimiz tarbiya topadi. Ushbu yoshlar bizning eng buyuk maqsadlarimizdan bo'lgan Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'lishi shubhasiz. Demak, davlat bayram sovg'asini avvalo kelajakka – bilim va ma'rifatga sarhisob qilayotgani milliy taraqqiyot falsafasining o'zagini tashkil etadi.

Universitet va kutubxonaning bayram sovg'asi sifatida xalqqa taqdim etilishi – bu davlatning qadriyatlar tizimini yaqqol namoyish etadi. Har qanday millat nimani ulug'lasa, nimani bayram sovg'asi deb bilsa, uning kelajagi ham o'sha yo'nalishda shakllanadi. O'zbekiston esa o'zining eng ulug' bayramida xalqqa ilm va ma'rifat maskanlarini tortiq etmoqda. Bu **«biz kelajagimizni bilim bilan quramiz»** degan qat'iy pozitsiyaning amaliy ifodasidir. Nizomiy Ganjaviy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining ochilishi esa alohida e'tiborga molik, zero, aynan bu dargohda bo'lajak ustozlar – millat tarbiyachilari voyaga yetadi. Ustozlar tayyorlaydigan maskanga ko'rsatilayotgan e'tibor butun ta'lim tizimiga qaratilgan g'amxo'rlikning ramzidir.

Kutubxona esa millat xotirasi va tafakkurining xazinasidir. Raqamli texnologiyalar

avj olgan bugungi kunda ham kitob va kutubxonaning qadri aslo kamaymaydi, aksincha, ortadi. Zamonaviy, boy va qulay kutubxonaning barpo etilishi yoshlarni mutolaaga, izlanishga va bilim olishga undaydi. Mutolaa madaniyati yuksak bo'lgan millat chuqur fikrlaydigan, keng dunyoqarashli va ma'nau boy bo'ladi. Shu bois O'zbekiston milliy kutubxonasining muhtasham binosi – bu nafaqat kitoblar saqlanadigan joy, balki millat ma'naviyatining va intellektual salohiyatining ramziy markazi bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz bu betakror makonning kelajagiga cheksiz ishonch bildirib, shunday dedi: **«Bir necha yuz yillik orzular ro'yobga chiqayotgan bu betakror makonda butun xalqimiz bilan hali yana ko'plab quvonchli va tarixiy voqealarga guvoh bo'lamiz. Aminmanki, Yangi Toshkent poytaxtimizning ko'rkiga ko'rk qo'shib, biz barpo etayotgan Yangi O'zbekistonning kuch-qudratini namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markaziga aylanadi!»**

Bu so'zlar nafaqat bir shahar hududi haqida, balki butun bir millatning kelajakka bo'lgan dadil ishonchi va ulkan rejalariga nisbatan aytilmoqda.



DUNYO REKORDI – BAYRAM SHUKUHINI OSHIRGAN MUSIQALI FAVVORA

Bayram kayfiyatiga o'zgacha bir balandlik va g'urur bag'ishlagan yana bir voqea dunyodagi eng baland musiqali favvora ishga tushirilishi bo'ldi. Prezidentimiz bu haqda alohida quvonch bilan to'xtalib, shunday dedi: **«Bugun sizlarning ishtirokingizda ochiladigan favvora dunyodagi eng baland musiqali favvora sifatida Ginnesning rekordlar kitobidan joy olgani ham bayram kayfiyatiga yanada baland ruh bag'ishlaydi».**

Bu oddiy bir inshoot haqidagi xabar emas. Ginnesning rekordlar kitobidan joy



olgan har bir yutuq millatning salohiyati, did-farosati va zamonaviy texnologiyalarni egallash darajasining ramziy ifodasidir. Musiqali favvora suv, musiqa, yorug'lik va zamonaviy muhandislik san'atining uyg'unligidan tashkil topgan bo'lib, u Yangi Toshkentning go'zal qiyofasini butun dunyoga namoyish

etadi. Shu tariqa bayramning ilk soatlari-danoq O'zbekiston nomi jahon miqyosidagi e'tirofga sazovor bo'ldi.

Prezidentimizning bu voqeani bayram nutqida alohida tilga olishi bejiz emas. U orqali davlatimiz rahbari har bir yurtdoshimizga bitta haqiqatni yetkazmoqda: biz nafaqat o'tmishimiz bilan faxrlanadigan, balki bugungi kunda ham dunyo miqyosida yuksak marallarni zabt etishga qodir xalqmiz. Ana shunday kichik, ammo ramziy yutuqlar zamirida millatning o'ziga bo'lgan ishonchi, intilishi va katta orzulari yashiringan.

YANGI TOSHKENT – KELAJAKKA QURILGAN RAMZIY KO'PRIK

ayramning Yangi Toshkentda nishonlanishi chuqur ramziy ma'noga ega. Bu mas-kan o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'prikdir. Poytaxtimizning qoq yuragida qad rostlayotgan zamonaviy shaharda ilm-fan markazlari, universitetlar, kutubxona, bog'lar

va favvoralar bir butun me'moriy uyg'unlikda birlashgan. Bu yerda har bir bino, har bir ko'cha va har bir maydon kelajak avlod uchun qulay, zamonaviy va ilhombaxsh muhit yaratishga xizmat qiladi. Demak, Yangi Toshkent shunchaki yangi qurilish emas, balki Yangi O'zbekistonning qiyofasi, uning kelajakka bo'lgan qarashining toshga, g'ishtga va bog'-rog'larga ko'chgan ifodasidir.

Insoniyat tarixida har bir buyuk davlat va sivilizatsiya o'zining qudrati va salohiyatini muhtasham bunyodkorlik ishlarida namoyon etgan. Bizning ajdodlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarni bunyod etib, butun dunyoni hayratga

solgan edi. Bugun Yangi Toshkent ana shu buyuk me'morchilik an'anasining zamonaviy davomchisi sifatida maydonga kelmoqda. Prezidentimiz bu maskanni «Yangi O'zbekistonning kuch-qudratini namoyon etadigan chinakam taraqqiyot markazi» deb ta'riflar ekan, u aslida millatning o'ziga bo'lgan ishonchi va buyuk kelajakka intilishini bayon etmoqda. Ana shu intilish har bir yurtdoshimizning qalbida yashaydigan umumiy orzu va maqsaddir.

Zamonaviy dunyoda shaharlar nafaqat aholi yashaydigan maskan, balki davlat taraqqiyotining, innovatsion g'oyalar va iqtisodiy

sodiy faollikning markazlaridir. Dunyoning yetakchi mamlakatlari o'zining zamonaviy, qulay va ilmtalab shaharlari bilan jahonda taniladi. Yangi Toshkent ana shunday zamonaviy shaharlar qatoridan o'rin olishni, ilmfan, ta'lim, innovatsiya va madaniyatning yirik markaziga aylanishni ko'zlamoqda. Bu yerga dunyoning turli burchaklaridan olimlar, talabalar, investorlar va mehmonlar keladi, g'oyalar almashinadi, yangi loyihalar tug'iladi. Demak, Yangi Toshkent – bu O'zbekistonning kelajakka ochilgan oynasi, uning zamonaviy va taraqqiy etgan qiyofasining timsolidir.





BUYUK ISTIQLOLIMIZNING UCH MING YILLIK ILDIZLAR

DAVLATCHILIK AN'ANALARIMIZ VA QADIMIY SIVILIZATSIYAMIZ

Bugun keng nishonlanayotgan davlat mustaqilligi 1991-yilda xalqimizning xohish-irodasi va qat'iyati bilan qo'lga kiritilgan bo'lsa-da, bizning ajdodlarimiz insoniyat tarixining eng qadimiy davlatchilik an'alarini yaratgan xalqlardandir. Prezidentimiz mustaqilligimizning tarixiy ildizlari naqadar teranligini alohida ta'kidlab, shunday dedi: **«Biz 1991-yilda xalqimizning xohish-irodasi va qat'iyati bilan o'z davlat mustaqilligimizni qo'lga kiritdik. Aslida buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo'lgan**

davlatchilik an'alarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi».

Shu o'rinda alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan bir jihat bor: o'zbek xalqining davlatchilik an'analari ilm-ma'rifati, bunyodkorlik salohiyati, adolatparvarligi va bag'rikengligi bilan ajralib turadi. Ajdodlarimiz davlat qurishda kuch va zo'ravonlikka emas, kengash, tadbir va adolatga tayangan. Sohibqiron Amir Temurning «Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltiriladi» hamda «Kuch adolatda» degan hikmatli so'zlari milliy davlatchiligimizning mazmun-mohiyatini o'zida yaqqol ifodalaydi.

«Uch Renessans» tarixiy yo'li



Mustaqillikning ildizlarini uch ming yillik davlatchilik tarixi bilan bog'lash – bu nafaqat tarixiy haqiqat, balki chuqur ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega yondashuvdir. Buning zahirida bitta teran g'oya yotibdi: biz bugun ega bo'lgan mustaqillik osmondan tushgan yoki tasodifan qo'lga kiritilgan ne'mat emas, balki uzoq tarixiy taraqqiyotning, ajdodlarimiz asrlar davomida qurib kelgan davlatchilik an'alarining qonuniy davomidir. Ana shu tarixiy uzviylikni anglagan xalq o'z kelajagiga ishonch bilan qaraydi, chunki u ortida buyuk o'tmish, oldida esa ana shu o'tmishga munosib buyuk kelajak turganini biladi, his qiladi va shunga mos odim oladi.

Dunyoda ko'p xalqlar bor, ammo uch ming yillik uzluksiz davlatchilik an'anasiga ega bo'lgan millatlar kam. Ana shunday boy tarixga ega bo'lish ham katta g'urur, ham katta

mas'uliyatdir. G'urur – chunki biz buyuk sivilizatsiya vorislarimiz; mas'uliyat – chunki bu merosni avaylab-asrash, uni yanada boyitish va kelajak avlodlarga munosib holda yetkazish bizning zimmamizda. Prezidentimizning tarixiy ildizlarga bot-bot murojaat qilishi ana shu g'urur va mas'uliyat tuyg'usini har bir yurtodosh, ayniqsa, yosh avlod qalbida uyg'otishga qaratilganidir.

BIRINCHI VA IKKINCHI RENESSANS ALLOMALARI

Mana shunday bunyodkor asoslarga ega bo'lgani tufayli yurtimiz insoniyatga Birinchi va Ikkinchi Renessansni – ikki buyuk uyg'onish davrini taqdim etdi. Prezidentimiz ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissasini faxr bilan e'tirof etib,



shunday dedi: «**Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulugʻbek, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini boyitgan**».

Bu nomlarning har biri jahon ilm-fani tarixida oʻchmas iz qoldirgan daholardir. Algebra ilmining asoschisi Xorazmiy, tib ilmining sultoni Ibn Sino, yulduzlar ilmining buyuk ustasi Mirzo Ulugʻbek, soʻz mulkining sultoni Alisher Navoiy – bularning barchasi aynan bizning zaminimizdan yetishib chiqqan. Ana shu haqiqat har bir yurtdoshimizga beqiyos gʻurur va iftixor bagʻishlaydi hamda bugungi Uchinchi Renessans gʻoyasining tarixiy poydevori naqadar mustahkam ekanini koʻrsatadi.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk uygʻonish davrlari hech qachon boʻsh joyda paydo boʻlmagan. Ular doimo tinchlik, bunyodkorlik, ilm-fanga ehtirom va iqtidorni qadrlash muhiti mavjud boʻlgan joylarda kamol topgan. Birinchi Renessans – Movarounnahrda ilm-fan va madaniyat gurkirab rivojlangan davr, Ikkinchi Renessans esa Amir Temur va temuriylar saltanati davrida yuz bergan maʼnaviy-maʼrifiy yuksalish edi. Bugun Prezidentimiz ilgari surayotgan Uchinchi Renessans gʻoyasi ana shu ikki buyuk uygʻo-

nishning qonuniy davomi sifatida maydonga kelmoqda. Buning uchun esa avvalo bilimli, erkin fikrlovchi va vatanparvar avlodni tarbiyalash zarur. Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan taʼlim islohotlari, zamonaviy universitetlar va ilm maskanlari aynan shu vazifaga xizmat qilmoqda.

Ajdodlar merosi – bu shunchaki gʻururlanadigan oʻtmish emas, balki bugungi avlod uchun masʼuliyat va yoʻnalish belgilovchi mayoqdir. Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sinolar qoldirgan ilmiy meros bizni faqat maqtanish emas, balki ularga munosib boʻlish, dunyo ilm-faniga yangidan hissa qoʻshish uchun mehnat qilishga undaydi. Prezidentimizning ushbu allomalar nomini bayram nutqida faxr bilan tilga olishi ana shu masʼuliyatni har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbiga singdirishga qaratilgan teran maʼnaviy-tarbiyaviy daʼvatdir.

SOHIBQIRON BARPO ETGAN DAVLAT – ADOLAT VA BUNYODKORLIK TIMSOLI

Prezidentimiz buyuk ajdodimiz Amir Temur bobomizning tarixdagi oʻrnini alohida taʼkidlab, shunday dedi: «**Sohibqiron Amir Temur bobomiz barpo etgan davlat esa adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida tarix zarvaralaridan munosib oʻrin olgan**».



Sohibqiron bunyod etgan saltanat nafaqat harbiy qudrati, balki ilm-fanga, meʼmorchilikka, savdo-sotiqqa va adolatli boshqaruvga bergan eʼtibori bilan ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Samarqandning muhtasham obidarlari, uning zamonida qad rostlagan madrasa va rasadxonalar bugun ham butun dunyoni hayratga solmoqda. Aynan shu adolat va bunyodkorlik ruhi bugungi Yangi Oʻzbekistonning qurilish falsafasida davom etmoqda.

Amir Temur bobomizning «Kuch adolatda» degan hikmati asrlar osha bizga yetib kelgan eng qimmatli maʼnaviy merosdir. Bu

oddiy bir shior emas, balki davlat qurish va boshqarishning butun falsafasini oʻzida jamlagan teran hikmatdir. Adolat bor joyda xalq davlatga ishonadi, ishonch bor joyda birlik, birlik bor joyda esa qudrat boʻladi. Bugungi Yangi Oʻzbekistonda sud-huquq sohasidagi islohotlar, qonun ustuvorligini taʼminlash va fuqaro huquqlarini himoya qilish borasidagi ishlar aslida ana shu buyuk ajdodimiz vasiyatining zamonaviy sharoitdagi davomidir. Demak, Sohibqiron qoldirgan adolat gʻoyasi bugun ham tirik, u davlat siyosatining oʻzagida yashamoqda.



JADIDLAR ORZUSINING YANGI O'ZBEKISTONDAGI RO'YOBI

Mustaqillikning nechog'li ulug' ne'mat ekani, uning tarixiy ahamiyatini atoqli ma'rifatparvar Abdurauf Fitratning quyidagi o'tli xitobida yanada teran anglash mumkin: **«Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi? ...Ey chingizlarning, temurlarning, o'g'uzlarning, ottilarning shonli beshiklari! ...Kuchingmi ketdi? Kimsasizmi qolding? Yo'q... yo'q... Tangri haqqi uchun yo'q!.. Sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan! ...Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Qayg'urma! Eski davlating, eski salta-**

nating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, hech biri yo'qolmamishdir».

Abdurauf Fitratning ushbu o'tli xitobi bir asrdan ziyod vaqt oldin yozilgan bo'lsa-da, uning har bir so'zi bugun ham qalblarni larzaga soladi. Jadid bobolarimiz millatning cheksiz salohiyatiga, uning buyuk kelajagiga qat'iy ishongan edilar. Ular «sen kuchsiz emassan, sen kimsasiz emassan» deb millatni uyg'otishga, unga o'z kuchi va qadrini tanitishga intildilar. Ularning bu orzu-umidlari o'z davrida mustabid tuzum zulmi ostida to'la ro'yobga chiqmadi. Ammo bugun – mustaqil va ozod O'zbekistonda – ana shu orzular haqiqatga aylanmoqda. Prezidenti-

miz jadidlar merosiga murojaat qilar ekan, aslida ularning oldidagi ma'naviy qarzni ado etayotganini va ularning ezgu orzularini amalga oshirishni davlat siyosatining ustuvor vazifasi deb bilayotganini namoyish etmoqda.

Darhaqiqat, chuqur ildizlarga ega bo'lgan buyuk xalq tarix sahnasidan yo'qolmadi. U o'z davlatchiligini tiklabgina qolmay, uni dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlaridan biriga aylantirish uchun katta maqsad va marralarni belgilab, izchillik bilan olg'a intilmoqda. Prezidentimiz jadid bobolarimizning orzulari bugun ro'yobga chiqayotganini alohida qayd etib, shunday dedi: **«Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo'lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O'zbekistonda to'liq ro'yobga chiqmoqda».**

Milliy tafakkur va tarixiy xotirada og'riqli iz qoldirgan mustamlakachilikdan ozod bo'lgan ilk yillardan boshlab, milliy o'zlikni anglash va istiqlol g'oyalarini jamiyat hayotiga chuqur singdirish borasida izchil ishlar olib borildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu borada tarixiy adolatni tiklash yo'lida ulkan qadamlar qo'yildi. 2021–2025-yillarda Oliy sud tomonidan sobiq mustabid tuzum davrida nohaq ayblanib, qamalga yoki o'limga

BIRLASHIB, BUYUK TARIX YARATAMIZ!

hukm etilgan 1200 dan ziyod, joriy yilda esa yana 161 nafar qatag'on qurboni oqlandi. Abdulla Qodiriy va Ibrat uy-muzeylari hamda ijod maktablari barpo etildi, barcha hududlarda qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan muzeylar tashkil etildi.

Jadid bobolarimiz – Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon va boshqa ma'rifatparvarlar millatni jaholat va qaramlikdan ozod qilish, uni ma'rifat va taraqqiyot sari yetaklash uchun jonlarini fido qildilar. Ular o'z davrida maktablar ochdi, gazeta va jurnallar chiqardi, millatni uyg'otish, unga o'z haq-huquqini tanitirish yo'lida kurashdi. Afsuski, ularning ko'pchiligi mustabid tuzum tomonidan nohaq qatag'on



qilindi. Ammo ular yoqqan ma’rifat mash’ali o’chmadi, bugun jadidlar orzu qilgan erkin, ma’rifatli va mustaqil O’zbekiston ro’yobga chiqmoqda. Prezidentimizning jadid bobolarimiz xotirasini ulug’lashi ularning oldidagi ma’naviy qarzni ado etish, ularning orzularini amalga oshirish yo’lidagi qat’iy irodani namoyish etishdir.

Tarixiy adolatni tiklash, nohaq jabr ko’rgan vatandoshlarni oqlash – bu jamiyatning ma’naviy sog’lomligini ta’minlaydigan muhim jarayondir. O’tmishning og’riqli sahifalarini yashirish emas, balki ularni ochiq tan olish, xatolardan saboq chiqarish va jabrdiydalar xotirasini tiklash chinakam yetuk va mas’uliyatli davlatning belgisidir. Ana shunday yondashuv orqali jamiyatda haqiqat, adolat va insof qadriyatlari mustahkamlanadi, yosh avlod esa o’z tarixini to’liq va haqqoniy bilib ulg’ayadi.

Prezidentimiz ana shu muqaddas xotiraga ta’zim qilib, shunday dedi: **«Ushbu hayajonli daqiqalarda bugungi erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug’ ajdodlarimiz, jadidlar xotirasiga ta’zim bajo keltiramiz. Mana shu tarixiy sanada o’tgan 35 yil davomida mustaqilligimizni mustahkamlashga munosib hissa qo’shgan barcha marhum yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati va jasoratini yana bir bor e’tirof etishni joiz deb bilamiz».**

ISLOM KARIMOVNING YORQIN XOTIRASI

Davlatimiz rahbari mustaqilligimiz tarixida alohida o’rin tutgan Birinchi Prezidentimiz xotirasini hurmat bilan yod etib, shunday dedi: **«Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi Islom Abdu-g’aniyevich Karimovning yorqin xotirasini ehtirom bilan yod etamiz».**

Tarixiy vorislik va ajdodlar mehnatini qadrlash yetuk millat va mas’uliyatli davlatning muhim fazilatidir. Mustaqillikning ilk va eng mashaqqatli yillarida mamlakat poydevorini qurish, milliy valyuta, armiya, chegara va davlat ramzlarini yaratish, dunyo hamjamiyatida O’zbekistonni tanitish oson vazifa emas edi. Ana shu tarixiy davrda qo’shilgan hissa, to’kilgan peshona teri va ko’rsatilgan fidokorlik hech qachon unutilmasligi kerak. Prezidentimizning bayram nutqida ana shu davrga va unda mehnat qilgan barcha yurtdoshlarimizga minnatdorlik bildirishi o’tmishga hurmat, tarixiy vorislikka sadoqat va milliy birdamlikning yorqin ifodasidir.

Mustaqillikning qanday ulug’ ne’mat ekanini uning inson hayotiga olib kirgan o’zgarishlarida namoyon bo’ladi. Prezidentimiz bu haqda shunday dedi: **«Mustaqillik, eng avvalo, bizga shon-u sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi.**



Istiqlol tufayli biz o’zligimizni angladik, nomi hamisha e’zozda bo’lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik».

Darhaqiqat, mustaqillik faqat davlat ramzlari, bayram tadbirlari yoki yilda bir marta nishonlanadigan tarixiy sana emas. Mustaqillik – bu o’z taqdirimizni o’zimiz belgilash, dunyoga o’z ovoqimiz bilan irodamizni emin-erkin ifoda etish, o’z tariximizni o’zimiz yoza olish baxtidir. U nafaqat bobo-

larimizning, balki bugun jonajon O’zbekistonimizda yashab, o’z taqdirini yurt taqdiri bilan bog’lagan har bir yurtdoshimizning kundalik hayoti, orzu-umidlari, ijtimoiy faolligi va yuksak fuqarolik mas’uliyatida mujassam bo’lgan buyuk g’oyadir. Yangi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar va dasturlar, ulkan bunyodkorlik ishlari-ning tub mohiyatida ham aynan mustaqillik g’oyasi mujassamdir.

Tarixiy adolatni tiklash borasida qilingan ishlar mustaqillik g'oyasining ma'naviy chuqurligini yana bir bor ko'rsatadi. Sobiq mustabid tuzum davrida nohaq jabr ko'rgan, qatag'on qilingan minglab vatandoshlarimizning oqlanishi – bu nafaqat huquqiy, balki chuqur ma'naviy va insoniy harakatdir. U orqali davlat o'z tarixining og'riqli sahifalarini ochiq tan olib, adolatni tiklash va ajdodlar xotirasini ulug'lash yo'lidan borayotganini namoyish etmoqda. Ana shunday yondashuv jamiyatda tarixiy xotira, milliy o'zlik va adolat tuyg'usini mustahkamlaydi.

Prezidentimizning mustaqillik tarixini uch ming yillik davlatchilik an'analari bilan bog'lashi milliy g'oyaning eng muhim ustunlaridan biridir. Bu orqali davlatimiz rahbari yosh avlodga bitta teran haqiqatni singdirmoqda: biz tasodifan paydo bo'lgan emas, balki uzoq va shonli tarixga, boy davlatchilik va madaniyat an'alariga ega bo'lgan buyuk xalqmiz. Ana shu tarixiy o'zlikni anglash har bir yoshning qalbida vatanga muhabbat, milliy g'urur va kelajakka ishonch tuyg'usini kamol toptiradi. Shu bois nutqdagi har bir tarixiy murojaat aslida bugungi va ertangi kun uchun aytilgan ma'naviy saboqdir.



«INSON QADRI UCHUN» G'OYASI DAVLAT SIYOSATI MARKAZIDA



YURAKLARDAGI QO'RQUV VA HADIK O'RNINI ISHONCH VA XOTIRJAMLIK EGALLADI

Bugungi kunda O'zbekiston o'z davlatchiligining mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. So'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida keng ko'lamli yangilanish davri boshlandi. Bu islohotlarning barchasi markazida bitta ulug' g'oya – inson qadri turadi. Prezidentimiz bu g'oyaning naqadar ustuvor ekanini ta'kidlab, shunday dedi: **«Mustaqillikning buyuk ahamiyati, avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo'ladi. Shu bois, biz islohotlarni boshlagan birinchi kunlardan oq xalqning qalbiga quloq soldik, aholining dardiga darmon bo'lishni maqsad qildik. «Inson qadri uchun!» degan g'oyani davlat siyosatining markaziga olib chiqdik.»**

Inson qadrini ulug'lash avvalo odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolardan xalos etishdan boshlandi. Prezidentimiz bu masalaga alohida e'tibor qaratib, islohotlarning ilk va eng og'riqli nuqtalarini ochiq sanab o'tdi: **«Birinchi galda «paxta qulligi», «majburiy mehnat va bolalar mehnati», «konvertatsiya cheklovi», «propiska» kabi odamlarni yillar davomida qiynab kelgan muammolarga barham berdik.»**

Mustabid tuzumdan meros bo'lib qolgan paxta qulligi, majburiy mehnat va bolalar

Yuraklardagi qo'rquvdan — ishonchga



mehnatiga chek qo'yildi. Iqtisodiy taraqqiyo-timizga to'siq bo'lib turgan konvertatsiya cheklovi bekor qilindi. O'z yurtida odamni begonadek his etishga majbur qilgan propiska tizimidan voz kechildi. Bu islohotlar oddiy ma'muriy o'zgarishlar emas, balki inson erkinligi va qadr-qimmatini tiklagan tub burilishlar bo'ldi.

Prezidentimiz ana shu o'zgarishlarning eng muhim natijasini alohida qayd etib, shunday dedi: «Eng asosiysi, fuqarolarimiz yuragidagi qo'rquv va hadik o'rnini ishonch va xotirjamlik egalladi. Har bir inson erkin va farovon yashaydigan jamiyat barpo etish uchun keyingi o'n yilda tinimsiz izlandik, qattiq mehnat qildik».

Insonning yuragidagi qo'rquvni ishonchga aylantirish – bu har qanday moddiy yutuqdan ham qimmatli ma'naviy g'alabadir. Ana shu ishonch tufayli o'zbek xalqining o'z kuch-qudratiga bo'lgan yuksak ishonchi, harakatchanligi, odamiyligi, o'zaro hurmati, yelkadoshligi, mehnatkashligi va bunyodkorlik fazilatlarini Yangi O'zbekistonning eng katta boyligiga aylandi.

Paxta qulligi, majburiy mehnat, konvertatsiya cheklovi va propiska kabi muammolar yillar davomida odamlarning erkinligini bo'g'ib, ularning qadrini kamsitib kelgan edi. Bu muammolarga barham berilishi shuncha-ki ma'muriy islohot emas, balki insonni

o'z yurtida chinakam erkin va teng huquqli fuqaroga aylantirgan tub burilish bo'ldi. Endi dehqon o'z mehnatining evazini oladi, ota-ona farzandini maktabga bemaol yuboradi, tadbirkor o'z ishini erkin yuritadi, har bir inson o'z yurtida istagan joyda yashash va ishlash huquqiga ega. Ana shu ozodlik

va erkinlik mustaqillikning inson hayotidagi eng sezilarli va qadrli samarasidir.

Odamlar qalbidagi qo'rquvning o'rnini ishonch va xotirjamlik egallashi – bu jamiyatning ruhiy va ma'naviy sog'lomlashuvini anglatadi. Qo'rquv ichida yashagan inson ijod qila olmaydi, tashabbus ko'rsatmaydi, o'z fikrini erkin bayon etmaydi. Ishonch va xotirjamlik muhitida esa inson o'z salohiyatini to'liq namoyon etadi, dadil orzu qiladi va ulug' maqsadlar sari intiladi. Shu bois Prezidentimiz yuraklardagi qo'rquvning ishonchga aylanishini **«eng katta yutuqlarimizdan biri»** deb baholaydi. Darhaqiqat, erkin va xotirjam xalqgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.




O'ZBEKISTON DUNYOGA KENG OCHILDI

Prezidentimiz mamlakatimizning tashqi siyosatdagi tub burilishini ta'kidlab, shunday dedi: **«Katta siyosiy iroda ko'rsatib, O'zbekistonni dunyoga keng ochdik. Xususan, chegara muammolari hal qilindi, qo'shnilarimiz bilan do'stlik va hamkorlik mustahkamlandi. Valyuta, soliq, bojxona va investitsiya siyosatida tub o'zgarishlar amalga oshirildi».**

Dunyoda geosiyosiy ziddiyatlar avj olayotgan bir davrda O'zbekistonning ochiqlik va yaxshi qo'shnichilik siyosati tufayli Mar-

kaziy Osiyo mintaqasida chegara muammolari hal etildi. Mintaqa endi ziddiyatlar emas, balki hamkorlik, do'stlik va hamjihatlik maskani sifatida dunyoga ibrat bo'lmoqda. O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston chegaralari tutashgan nuqtada barpo etilgan Do'stlik stellasini esa bu mintaqaviy birdamlikning yorqin ramziga aylandi.

Mamlakatni dunyoga keng ochish – bu katta siyosiy jur'at va uzoqni ko'ra bilishni talab qiladigan qaror edi. Yillar davomida yopiq, uzilgan va ishonchsizlik muhitida turgan mintaqani hamkorlik va do'stlik makoniga aylantirish oson bo'lmadi. Buning uchun avvalo ichki islohotlarni amalga oshirish,



iqtisodiyotni erkinlashtirish va qo‘shnilar bilan ochiq muloqot yo‘lini tanlash zarur edi. Prezidentimiz ana shunday strategik yo‘lni tanladi va natijada bugun O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun mintaqaning barqarorlik va taraqqiyot markazi sifatida e‘tirof etilmoqda. Bu oqilona, uzoqni ko‘zlagan va millat manfaatiga xizmat qiladigan siyosatning yorqin samarasidir.

YURT DAROMADI PASTDAN O‘RTAGA O‘TDI, O‘RTADAN YUQORI BO‘LMOQDA

Iqtisodiy islohotlarning natijasi aniq raqamlarda yaqqol ko‘rinadi. Prezidentimiz bu natijalarni faxr bilan keltirib, shunday dedi: **«Natijada «Iqtisodiy erkinlik indeksi»da-**



gi o‘rnimizni 80 pog‘ona yaxshilab, «iqtisodiyoti mo‘tadil erkin» davlatlar qatoridan joy oldik».

Xorijiy sarmoya oqimi ham misli ko‘ril-magan darajada oshdi. Prezidentimiz bu masalaga alohida e‘tibor qaratib, shunday dedi: **«Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2–3 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelingan bo‘lsa, hozirgi paytda 40–50 milliard dollar chet el sarmoyasi jalb qilinmoqda. Yurtimizga investitsiyalar bilan birga ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy bilim va yangi iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelmoqda».**

Dunyo iqtisodiyotida beqarorlik, xalqaro savdo va logistikada uzilishlar davom etayotgan, bir qator davlatlarda notinchlik hukm surayotgan murakkab sharoitda O‘zbekistonning barqaror va yuqori sur‘atlarda o‘sib

borayotgani katta yutuqdir. Prezidentimiz bu boradagi dadil maqsadni shunday e‘lon qildi: **«Biz uch yil oldin 2030-yilda yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga yetkazishni reja qilgan edik. Global logistikadagi uzilishlar, dunyodagi notinch vaziyatga qaramasdan, bu vazifani shu yilning o‘zida ortig‘i bilan amalga oshiramiz va daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kiramiz».**

Bu raqamlarning ortida chuqur ma‘no yotibdi. Yillik xorijiy investitsiyaning 2–3 milliard dollardan 40–50 milliard dollarga ko‘tarilishi – bu deyarli yigirma barobar o‘sish demakdir. Bunday miqyosdagi sarmoya oqimi yurtimizga nafaqat pul, balki ilg‘or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv usullari, yangi ish o‘rinlari va bilim olib kirmoqda. Dunyoning yetakchi kompaniyalari, investorlari va mutaxassislari O‘zbekistonni ishonchli va istiqbolli hamkor sifatida tanlayotgani mamlakatda yaratilgan barqaror, ochiq va jozibador ishbilarmonlik muhitining yorqin dalilidir. Belgilangan maqsadga – 160 milliard dollarlik marra sarhisobiga – rejalashtirilgan vaqtdan avval erishilayotgani esa Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati va irodasi naqadar kuchli ekanini ko‘rsatadi.





650 MING OILA, KAMBAG'ALLIKNING QISQARISHI VA 10 MILLION INSON QUVONCHI

Bunday yuksak natijalar o'z-o'zidan kelgani yo'q. Ularning zahirida «davlat – xalq uchun» tamoyili, turli darajadagi rahbarlarning uyma-uy yurib odamlar muammosini hal etishi va xalq bilan davlatning yagona manfaat yo'lida birlashuvi yotadi. Minglab mahallalarimizga Yangi O'zbekiston qiyofasi kirib bormoqda.

Prezidentimiz kambag'allikni kamaytirish borasidagi Yangi O'zbekiston tajribasini alohida ta'kidlab, shunday dedi: **«Kambag'allik masalasini ochiq tan olib, uni keskin qisqartirish bo'yicha Yangi O'zbekiston tajribasini yaratdik. Ehtiyojmand oilalarning daromadi, kasbi, salomatligi, farzandlarining ta'lim olishi va yashash sharoitini yaxshilash bo'yicha «mahallabay» ishlash tizimini yo'lga qo'ydik».**



Tizimli ishlarning natijasi ajoyib bo'ldi. Prezidentimiz aniq raqamlar bilan bu muvaffaqiyatni namoyon etib, shunday dedi: **«Izchil sa'y-harakatlarimiz tufayli bugungi kunda kambag'allik darajasini 2017-yildagi 35 foizdan 4 foizga tushirishga erishdik. Ushbu raqamlar zahirida ro'zg'origa baraka kirib, turmush sifati yaxshilangan 10 million insonning quvonchi va shukronalik tuyg'ulari mujassam».**

O'n million inson – bu butun bir mamlakat aholisiga teng raqam. Ana shu o'n million yurtldoshimizning quvonchi, uning ro'zg'origa kirgan baraka va farzandlari kelajagiga bo'lgan ishonchi mustaqillikning eng yorqin samarasidir. Zamonaviy uy-joy masalasida ham katta ishlar qilindi. Prezidentimiz bu quvonchni hayajon bilan ifodalab, shunday dedi: **«Yangi davrda zamonaviy uy-joyga ega bo'lgan 650 mingdan ziyod oilaning quvonchini so'z bilan ta'riflab bo'ladimi?»**

Darhaqiqat, yangi, zamonaviy, shi nam uyga ko'chib o'tgan har bir oilaning quvonchini so'z bilan to'la ifodalash mushkul. Bu farzandlarning kelajagiga qo'yilgan mustahkam poydevor, oila baxtining zamonaviy maskani va davlat g'amxo'rlikining eng hayotiy, eng sezilarli ifodasidir.

«Inson qadri uchun» g'oyasining eng go'zal jihati shundaki, u qog'ozda qolib





ketgan shior emas, balki aniq, o'lchanishi mumkin bo'lgan amaliy natijalarda namoyon bo'lmoqda. Kambag'allik darajasining 35 foizdan 4 foizga tushishi, 650 mingdan ziyod oilaning zamonaviy uy-joyga ega bo'lishi, 10 million insonning turmush sifati yaxshilanishi – bularning har biri inson qadrini ulug'lashning tirik, hayotiy timsolidir. Ana shu raqamlarning ortida aniq insonlar, oilalar, bolalar va ularning kelajakka bo'lgan ishonchi turadi. «Mahallabay ishlash» tizimi esa davlatning har bir ehtiyojmand oila eshigini alohida qoqib, uning dardini eshitib, aniq yechim ko'rsatayotganini anglatadi.

Islotlarning insonga yo'naltirilgani Yangi O'zbekiston siyosatining o'zagini tashkil etadi. Dunyoda ko'plab davlatlar rivojlanish haqida so'zlaganda avvalo iqtisodiy raqamlarni, yalpi ichki mahsulot hajmini tilga oladi. O'zbekistonda esa taraqqiyotning bosh mezonini inson, uning qadr-qimmatini, erkinligi va farovonligidir. Iqtisodiy o'sish, investitsiya va sanoat – bular maqsad emas, balki inson hayotini yaxshilash yo'lidagi vositalardir. Ana shu insonparvarlik falsafasi Prezident nutqining boshidan oxirigacha qizil ip bo'lib o'tadi va uni chinakam xalqchil hujjatga aylantiradi.

«Mahallabay ishlash» tizimi Yangi O'zbekistonning dunyoga taqdim etgan noyob

ijtimoiy kashfiyotlaridan biridir. Bunda kambag'allik va ehtiyojmandlik masalasi umumiy shiorlar bilan emas, balki har bir oila darajasida, aniq va manzilli tarzda hal etiladi. Har bir ehtiyojmand oilaning o'ziga xos muammosi – kimdir ish o'rniga, kimdir kasb-hunarga, kimdir davolanishga, kimdir farzandining ta'limiga muhtoj – alohida o'rganilib, unga mos yechim topiladi. Ana shunday individual va insonparvar yondashuv tufayli kambag'allik darajasi qisqa muddatda bir necha barobar kamaydi. Bu «inson qadri» g'oyasining eng konkret va ta'sirli amaliy ifodasidir.

MILLAT VA DAVLAT BIRDAMLIGI

Prezidentimiz bu barcha yutuqlarning bosh omilini alohida ta'kidlab, shunday dedi: **«E'tiborli jihati – biz bunday yuksak natijalarga xalqimizning fidokorona mehnati, intellektual salohiyati hamda millat va davlat birdamligi tufayli erishyapmiz. Ijobiy o'zgarishlarni har bir inson, har bir oila o'z hayotida chuqur his etyapti, desam, fikrimga qo'shilasiz, albatta».**

Darhaqiqat, bu adolatli haqiqatni butun xalqimiz ko'rib, his qilib turibdi. Ana shu millat va davlat birdamligi Yangi O'zbekiston



taraqqiyotining eng mustahkam tayanchi, barcha yutuqlarning manbayi va kelajakka bo'lgan ishonchning asosidir.

Tarix shuni ko'rsatadiki, har qanday buyuk yutuq faqat xalq va davlat birlashgan, yagona maqsad yo'lida yelkadosh bo'lgan joyda qo'lga kiritiladi. Davlat qanchalik to'g'ri siyosat olib bormasin, agar xalq uni qo'llab-quvvatlamasa, unga ishonmasa, natija bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, xalq qanchalik mehnatkash bo'lmasin, agar davlat unga sharoit va imkoniyat yaratib bermasa, salohiyat ro'yobga chiqmaydi. Yangi O'zbekistonning eng katta yutug'i ham aynan shunda – davlat va xalq bir-biriga ishonib, bir maqsad sari birgalikda harakat qila boshladi. Ana shu ishonch va hamjihatlik har qanday iqtisodiy raqamdan ham qimmatli, millatni oldinga yetaklovchi buyuk ma'naviy kuchdir.

YANGI O'ZBEKISTON VA INSON QADRI



Asosiy g'oya:
"Inson qadri uchun" g'oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqildi.



Majburiy mehnat
Paxtadagi majburiy mehnatga barham berildi.



Bolalar mehnati
Bolalar mehnatiga barham berildi.



Konvertatsiya
Konvertatsiya cheklolari bekor qilindi.



Propiska
Propiska bilan bog'liq muammolar bartaraf etildi.



Ishonch va xotirjamlik
Fuqarolarda ishonch va xotirjamlik muhitini mustahkamlashga e'tibor qaratildi.



Ochiq O'zbekiston
O'zbekiston dunyoga keng ochildi.

INSON QADRI — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH MEZONI

IQTISODIY ISLOHOTLAR VA INVESTITSİYALAR

Asosiy natijalar, investitsiyalar va YAIM bo'yicha maqsadlar



1 **Iqtisodiy islohotlar**
Valyuta siyosatida tub o'zgarishlar, soliq tizimida islohotlar, bank sohasida o'zgarishlar va investitsiya siyosatining yangilanishi amalga oshirildi.



2 **80%**
Iqtisodiy erkinlik indeksidagi o'rin yaxshilandi



3 **2–3 mlrd \$**
avval yiliga
↓
40–50 mlrd \$
hozir jalb qilinayotgan chet el sarmoyasi



4 **Investitsiyalar samarasi**
Ilg'or texnologiyalar, zamonaviy bilim va yangi iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelmoqda.



5 **160 mlrd \$**
2030-yil uchun avval belgilangan YAIM marrasi



6 **Muhim qayd**
Ushbu 160 mlrd dollarlik marra joriy yilning o'zida ortig'i bilan amalga oshirilishi qayd etilgan.

UY-JOY, KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA MAHALLABAY ISHLASH



1 **650**
mingdan ziyod
zamonaviy uy-joyga ega bo'lgan oilalar



2 **35% → 4%**
kambag'allik darajasi
2017-yildan hozirgacha



3 **10 million**
inson hayotida ijobiy o'zgarishlar aks etdi

Mahallabay ishlash tizimi

Ehtiyojmand oilalarning yashash sharoitini yaxshilash bo'yicha tizimli yondashuv yo'lga qo'yildi



daromadi



kasbi



salomatligi



farzandlari ta'limi



Mahallabay ishlash tizimi oilalarning ehtiyojini aniq baholash va manzilli yordam ko'rsatishga xizmat qilmoqda.



YANGI AVLOD MUTAXASSISLARI

MAQOMI YUKSALAYOTGAN MUALLIM

Prezidentimiz mamlakat kelajagini ta'lim va bilimli avlod bilan bog'lab, shunday dedi: **«Dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashimiz uchun bizga bilimli, kelajak kasblarini puxta egallagan, mustaqil fikriga ega bo'lgan yangi avlod mutaxassislari kerak. Shu bois, ta'limga sifat va mazmun olib kiryapmiz. Muallimning**

obro'-e'tiborini tiklab, daromadini oshirib boryapmiz».

Millatni ustozlar tarbiyalaydi, ma'nan yuksaltiradi. Shuning uchun Yangi O'zbekistonda o'qituvchi va murabbiylarning qadr-qimmatini yuksaltirish, ustoz maqomini oshirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Pedagoglarning huquq va manfaatlari ilk bor Konstitutsiya darajasida mustahkamlanib, ularni majburiy mehnat, turli hisobotbozlik va o'z xizmat vazifasiga kirmaydigan ortiqcha ishlarga jalb qilish qat'iy qat'iy taqiqlandi. O'qituvchilarning maoshlari va malakasiga qarab qo'shimcha ustamalar tizimi kengaytirildi, fidoyi ustozlarni davlat mukofotlari hamda imtiyozli ijtimoiy yordamlar bilan rag'batlantirish kuchaytirildi.

Ustoz maqomining oshirilishi beqiyos ahamiyatga ega. Zero, jamiyatning ertangi kuni, ta'lim sifati va



kelajak avlod tarbiyasi bevosita o'qituvchining kayfiyati va bilim berish ishtiyoqiga bog'liq. Qadr topgan, ijtimoiy himoyalangan va erkin ijod qila oladigan pedagog bor kuchini o'quvchilarga chuqur bilim va to'g'ri tarbiya berishga safarbar etadi. Bu jarayon yoshlarning o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishi va hurmatini oshirib, tizimga eng iqtidorli kadrlarning kirib kelishiga hamda mamlakatning intellektual salohiyati barqaror yuksalishiga mustahkam poydevor bo'ladi.

Ustoz maqomiga berilayotgan e'tibor aslida millat kelajagiga qaratilgan eng uzoqni ko'zlagan sarmoyadir. Xalqimizda «Ustoz otangday ulug'» degan hikmatli naql bor. Bu naql zahirida chuqur ma'no yotibdi: insonni kamolga yetkazgan, unga ilm va odob o'rgatgan ustoz ota-ona qatorida e'zozlanishi lozim. Prezidentimiz aynan ana shu milliy qadriyatni davlat siyosati darajasiga ko'ta-

rib, ustozning ijtimoiy maqomini, obro'-e'tiborini va moddiy ta'minotini yaxshilashni ustuvor vazifa etib belgiladi. Chunki ta'lim sifati haqida qanchalik ko'p so'zlamaylik, u pirovardida, dars xonasidagi ustozning bilimi, mahorati va ishtiyoqiga borib taqaladi.

O'qituvchini majburiy mehnat va ortiqcha qog'ozbozlikdan ozod qilish unga asosiy vazifasi, ya'ni yosh avlodni tarbiyalashga to'liq e'tibor qaratish imkonini beradi. Pedagog ortiqcha yukdan va turli bosimlardan xalos bo'lganda, u o'z kasbiga ijodkorona yondashadi, har bir o'quvchining qalbiga yo'l topadi. Ana shunday erkin, ijodkor va qadrlangan ustoz tarbiyalagan avlod Uchinchi Renessansning chinakam bunyodkori bo'ladi. Shu bois ustoz maqomini ko'tarish – bu nafaqat ta'lim sohasidagi, balki butun jamiyat kelajagiga daxldor strategik masaladir.






TA'LIMGA SIFAT VA MAZMUN OLIB KIRILMOQDA

Prezidentimiz ta'lim tizimidagi ulkan o'zgarishlarni aniq raqamlar bilan bayon etib, shunday dedi: **«O'tgan o'n yilda, aholimiz 8 millionga ko'paygan sharoitda ham bog'cha qamrovini 78 foizga yetkazdik. Maktablarda 1,5 million qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratildi. Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar tashkil etilgani farzandlarimizga yetakchi xorijiy ta'lim maskanlaridan kam bo'lmagan darajada chuqur bilim egallash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Yoshlarga xorijiy tillar va kasb-hunar o'rganishlari uchun munosib sharoitlar yaratdik».**

Maktabgacha va maktab ta'limi



Aholi sakkiz millionga ko'paygan bir sharoitda bog'cha qamrovini 78 foizga yetkazish – bu oddiy raqam emas, balki davlatning kelajak avlod uchun ko'rsatayotgan ulkan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir. Ta'lim sifatini oshirish yo'nalishida o'quv dasturlari xalqaro standartlar asosida yangilanib, ta'lim jarayoniga zamonaviy interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Natijada quruq yodlashdan ko'ra yoshlarda tanqidiy fikrlash, amaliy ko'nikma va mustaqil izlanish qobiliyatini shakllantirishga urg'u berilmoqda.

Ta'lim sifati yuksalishining ahamiyati shundaki, u mamlakatning barqaror taraqqiyoti

va raqobatbardoshligini ta'minlovchi eng muhim poydevordir. Sifatli bilim olgan mutaxassislar zamonaviy mehnat bozorida oson ish topib, sanoat, tibbiyot, axborot texnologiyalari va ilm-fan sohalariga yuqori samaradorlik hamda yangi innovatsiyalarni olib kiradi. Bilimli va keng dunyoqarashga ega avlod jamiyatda ijtimoiy ong, madaniyat va qonun ustuvorligini yuksaltirib, mamlakatni xomashyoga qaramlikdan yuqori daromadli «bilimlar iqtisodiyoti»ga olib chiqadi.

Ta'limga «sifat va mazmun olib kirish» – bu iboraning zamirida chuqur ma'no yotibdi.

Gap faqat maktablar soni yoki o'quvchi o'rinlari haqida emas, balki ta'limning mohiyati, uning bolaga nima berishni ko'zlagani haqida bormoqda. Quruq yodlash va mexanik takrorlashga asoslangan eski usuldan voz kechib, bolaning mustaqil fikrlashi, izlanishi, tahlil qila olishi va egallagan bilimni hayotda qo'llay bilishiga urg'u berilmoqda. Bu ta'lim falsafasidagi tub burilish bo'lib, u kelajakda mustaqil fikrlovchi, ijodkor va tashabbuskor avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Aynan shunday avlod Uchinchi Renessansning chinakam bunyodkori bo'la oladi.





OLIY MA'LUMOT FAQAT ORZU EMAS, ERISHSA BO'LADIGAN MAQSADGA AYLANDI

Prezidentimiz oliy ta'lim qamrovidagi o'zgarishni faxr bilan ta'kidlab, shunday dedi: **«Oliygozlarda o'qish uchun qulay sharoitlarni kengaytirganimiz hisobiga hozirgi kunda talabalar soni 1 million 600 ming nafarga yetdi. Quvonarlisi, yoshlarda bilim olishga ishtiyoq kuchaydi. Ota-onalar uchun farzandini oliy ma'lumotli qilish faqat orzu emas, erishsa bo'ladigan maqsadga aylandi».**

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi tubdan isloh qilinib, yoshlarni oliy ma'lumot bilan qamrab olish darajasi keskin oshirildi. Davlat oliygozlari bilan bir qatorda yangi nodavlat va nufuzli xorijiy universitetlar fili-

allari tashkil etildi, qabul kvotalari hamda sirtqi va masofaviy ta'lim shakllari kengaytirildi. Bu o'zgarishlar tufayli maktab va kollej bitiruvchilarining talaba bo'lish imkoniyati bir necha barobar ko'payib, oliy ta'lim olish alohida elita qatlam imtiyozidan barcha yoshlar uchun ochiq va ommabop tizimga aylandi.

«Ota-onalar uchun farzandini oliy ma'lumotli qilish faqat orzu emas, erishsa bo'ladigan maqsadga aylandi» – bu jumla-ning zahirida millionlab oilalarning quvonchi va umidi mujassam. Oliy ta'lim qamrovining oshishi mamlakatning eng asosiy boyligi bo'lgan inson kapitalini yuksaltiradi, yoshlarning yuqori daromadli kasb egallashini ta'minlab, jamiyatda ijtimoiy tenglik va barqaror farovonlikni mustahkamlaydi.

Oliy ta'limdagi talabalar soni



Yaqin o'tmishda oliy ta'lim ko'pchilik uchun erishib bo'lmaz orzu bo'lib tuyulardi. Talabalar sonining cheklanganligi, o'qishga kirish imkoniyatining torligi ko'plab iqtidorli yoshlarning bilim olish yo'lini to'sib qo'yar edi. Bugun esa vaziyat tubdan o'zgardi: talabalar soni bir million olti yuz ming nafarga yetdi, yangi universitetlar, xorijiy oliygozlari filiallari, masofaviy va sirtqi ta'lim shakllari kengaydi. Demak, oliy ta'lim endi tor bir qatlamning emas, balki barcha yoshlarning huquqi va imkoniyati. Ana shu o'zgarish millionlab oilalarning farzandlari kelajagiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va butun jamiyatda bilim olishga intilish ruhini kuchaytirdi.



ILM-FAN, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALAR

Prezidentimiz taraqqiyotning hal qiluvchi omilini ko'rsatib, shunday dedi: **«Biz ta'lim bilan bir qatorda ilm-fan, zamonaviy texnologiya va innovatsiyalarni ham taraqqiyotimizning hal qiluvchi omili deb bilamiz. Shu bilan birga, IT, sun'iy intellekt, kreativ iqtisodiyot kabi yo'nalishlar rivojiga yangi ruh berib, juda katta harakatni boshlab yubordik. Bu orqali 10 million yoshlarimizni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kiramiz».**

O'n million yoshni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish – bu mamlakat tarixidagi eng yirik intellektual safar-

barlikdir. Yangi O'zbekistonda ta'lim, ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar bir-birini to'ldiruvchi yagona tizim sifatida rivojlan-tirilmoqda. Zamonaviy maktab va univer-sitetlar bilimli yoshlarni tayyorlasa, ilm-fan yangi g'oyalarni yaratadi, innovatsiyalar esa bu bilimlarni to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqa-rish, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va raqamli sohalarga tatbiq etadi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va innovatsiya ekotizimini shakllantirish bora-sida katta ishlar amalga oshirildi. IT-Park-lar, innovatsiya markazlari, startap plat-formalari va texnologik inkubatorlar yosh ijodkor va dasturchilarga o'z g'oyalarini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyat

yaratmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumot-lar, robototexnika va kreativ iqtisodiyot kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilayotga-ni O'zbekistonning kelajak texnologiyala-rini o'zlashtirishga intilayotganini ko'rsatadi. Bunday yondashuv mamlakatni xomashyo sotuvchidan texnologiya yaratuvchiga ay-lantirish, yoshlarning intellektual salohiyatini aynan yurt ichida ro'yobga chiqarish im-onini beradi. Natijada O'zbekiston global maydonda faqat chet el texnologiyalarini sotib oluvchi iste'molchi emas, balki o'z ish-lanmalariga ega bo'lgan raqobatbardosh va mustaqil davlatga aylanadi.

O'n million yoshni raqamli industriya va kelajak kasblariga olib kirish – bu mis-li ko'rilmagan miqyosdagi vazifa. Dunyo hozir to'rtinchi sanoat inqilobi, sun'iy in-tellekt va raqamli iqtisodiyot davriga qadam qo'yimoqda. Bu sharoitda ortda qolmaslik,

aksincha, yetakchilardan biri bo'lish uchun yosh avlodni aynan kelajak kasblariga – dasturlash, sun'iy intellekt, robototexnika, ma'lumotlar tahlili kabi yo'nalishlarga tay-yorlash zarur. Prezidentimiz bu vazifani strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilar ekan, u O'zbekistonning kelajakda jahon texnologik taraqqiyotining chetida emas, balki markazida turishini ko'zlamoqda. Ana shunday uzoqni ko'zlagan intilish millat ke-lajagining yorqin manzarasini chizib beradi.



UCHINCHI RENESSANSNING O'ZIGA XOS QIYOFASI

Prezidentimiz ta'limdagi eng quvonchli o'zgarishlardan birini – ayollarning ilimga intilishini alohida ta'kidlab, shunday dedi: **«Ayniqsa, talabalarning yarmidan ko'pini xotin-qizlar tashkil etayotgani – Uchinchi Renessansning o'ziga xos qiyofasi, desak, to'g'ri bo'ladi. Chunki, bilimli qizlar – bilimli oila, bilimli avlod va ma'rifatli jamiyat deganidir».**

Bu so'zlarda chuqur hayotiy va milliy falsafa mujassam. Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning sifatli ta'lim olishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Magistraturada o'qiyotgan talaba qizlarning kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab berilmoqda, foizsiz ta'lim kreditlari hamda ehtiyojmand oilalardagi qizlar uchun maxsus davlat grantlari va kvotalari

ajratilmoqda. Ularning axborot texnologiyalari, muhandislik, aniq fanlar va tadbirkorlik ko'nikmalarini egallashlari uchun keng sharoitlar yaratilmoqda.

Xotin-qizlar ta'limining ahamiyati shundaki, bilimli va kasb egasi bo'lgan ayol nafaqat o'z hayotini yaxshilaydi, balki butun oila va jamiyat muhitini yuksaltiradi. Oqila va ma'lumotli ona tarbiyalagan farzandlar sog'lom, bilimga chanqoq va madaniyatli bo'lib voyaga yetadi. Bu esa kelajak avlod intellektual salohiyatining mustahkam poydevoridir. Prezidentimizning **«bilimli qizlar – bilimli oila, bilimli avlod va ma'rifatli jamiyat deganidir»** degan so'zlari ana shu teran haqiqatni bir jumlada ifoda etadi.

Talabalarning yarmidan ko'pini xotin-qizlarni tashkil etayotgani – bu nafaqat ta'lim sohasidagi, balki butun jamiyatdagi tub ma'naviy va ijtimoiy o'zgarishning yorqin



belgisidir. Yaqin o'tmishda ayrim oilalarda qizlarni o'qitishga ikkilanib qaralgan bo'lsa, bugun ta'lim olish, kasb egallash va jamiyatda faol ishtirok etish har bir qiz uchun tabiiy huquq va imkoniyatga aylandi. Bu o'zgarish ortida davlatning izchil siyosati, jamiyatdagi dunyoqarash yangilanishi va milliy qadriyatlarning zamonaviy talqini yotadi. Bilimli ona kelajak avlodning birinchi va eng ta'sirli ustozidir, shu bois qizlarning ta'limi butun millat ma'rifatining kalitidir.

Haqiqatan ham, ayol oilaning tamal toshi, millatning ma'naviy ustunidir. Onalarning bilimli, ma'rifatli va zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lishi butun bir avlodning sog'lom fikrlashi, vatanparvarligi va ijodkorligini ta'minlaydi. Ana shu bois Prezidentimiz xotin-qizlar ta'limini Uchinchi Renessansning «o'ziga xos qiyofasi» deb ta'riflashi bejiz emas. Bu millat kelajagining go'zal va nurli manzarasidir: bilimli qizlar bilimli oilalar quradi, bilimli oilalar bilimli avlodni tarbiyalaydi, bilimli avlod esa ma'rifatli, taraqqiy etgan va qudratli jamiyatni barpo etadi.

Ayniqsa, xotin-qizlarning axborot texnologiyalari, muhandislik, aniq fanlar va tadbirkorlik kabi ilgari asosan erkaklarga xos deb hisoblangan sohalariga kirib kelayotgani jamiyatdagi tub ijobiy o'zgarishning yorqin belgisidir. Bu nafaqat teng huquqlilik tamoyilining amalda ta'minlanishi, balki millat intellektual salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishi demakdir. Zero, ayollar jamiyatning yarmini tashkil etadi va bu ulkan salohiyatni ro'yobga chiqarmasdan turib mamlakatning har tomonlama taraqqiyotiga erishib bo'lmaydi. Bilimli, tashabbuskor va faol ayollar iqtisodiyot, ilm-fan, ta'lim va boshqaruv sohalarida munosib hissa qo'shib, jamiyatni yanada yuksaltirmoqda.





«SAMARQAND – 2028» SUN'IY YO'LDOSHI FAZOGA UCHDI

Prezidentimiz mamlakatimizning kosmik sohadagi tarixiy qadamini alohida g'urur bilan ta'kidlab, shunday dedi: **«Istiqlol bayramimiz arafasida xitoylik hamkorlarimiz bilan «Samarqand – 2028» sun'iy yo'ldoshini fazoga uchirganimiz bizga alohida g'urur bag'ishlaydi».**

«Samarqand – 2028» sun'iy yo'ldoshi O'zbekistonning kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar sohasidagi muhim amaliy qadamlaridan biri bo'lib, mahalliy olimlar, muhandislar va xalqaro hamkorlar ishtirokida koinotga uchirilgan zamonaviy ilmiy-tadqiqot qurilmasidir. Uning asosiy vazifasi Yer yuzasini masofadan turib kuzatish, yuqori aniqlikdagi tasvirlarni olish va milliy kosmik infratuzilmani shakllantirishga xizmat qilishdan iborat.

Ushbu sun'iy yo'ldosh mamlakatimiz iqtisodiyoti va ilm-fani uchun juda katta

FAZONI ZABT ETAYOTGAN O'ZBEKLAR

ahamiyat kasb etadi. U orqali olinadigan aniq ma'lumotlar qishloq xo'jaligida ekin maydonlari va suv resurslarini monitoring qilish, ekologik o'zgarishlar, xususan, Orolbo'yi hududi holati va tabiiy ofatlarni oldindan baholash hamda shaharsozlikni rejalashtirishda bevosita qo'llaniladi. Bundan tashqari, loyiha mamlakatimizda kosmik sanoat bo'yicha milliy mutaxassislar va yosh



kadrlarni tayyorlashda ulkan amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kosmik soha zamonaviy dunyoda davlat qudrati va ilmiy salohiyatining eng yuksak ko'rsatkichlaridan biridir. Fazoga sun'iy yo'ldosh uchira oladigan davlatlar soni ko'p emas va O'zbekistonning ana shu davlatlar qatoriga qo'shilayotgani millat uchun chinakam tarixiy yutuqdir. Bir vaqtlar bobolarimiz yulduzlarni kuzatib, Mirzo Ulug'bek boshchiligida eng aniq jadvalni tuzgan edi. Bugun ularning avlodlari ana shu buyuk ilmiy an'anani zamonaviy darajada davom ettirib, fazoni o'rganishga kirishmoqda. Bu o'tmish va kelajakni bog'lovchi ajoyib ma'naviy ko'priq, ajdodlar ilmiy merosiga munosib vorislik timsolidir.

O'ZBEK XALQI O'Z FAZOGIRINI KUTMOQDA

O'zbek xalqining o'z fazogirini koinotga uchirishi shunchaki tarixiy voqea emas, balki millatning ulkan ilmiy, intellektual va texnologik salohiyatini butun dunyoga namoyish etuvchi muhim yutuq bo'ladi. Bu qadam O'zbekistonning kosmik tadqiqotlar olib boruvchi davlatlar qatorida o'z o'rnini mustahkamlashini va uzoq yillik orzularning ro'yobga chiqishini anglatadi. O'z vatandoshimizning fazoda parvoz qilishi va davlatimiz bayrog'ini koinotga olib chiqishi



har bir yurtdoshimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida cheksiz g'urur va iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

Milliy fazogirimiz ishtirokida koinotda o'tkaziladigan ilmiy tajribalar mamlakatimizda tibbiyot, qishloq xo'jaligi, ekologiya va telekommunikatsiya texnologiyalarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu ulkan muvaffaqiyat minglab yoshlarni astronomiya, aniq fanlar, muhandislik va axborot texnologiyalari sohalariga qiziqtirish uchun eng kuchli motivatsiya bo'lib, O'zbekistonning kelajakdagi yangi avlod olimlari hamda ixtirochilarini yetishtirishga mustahkam zamin yaratadi.

Har bir millatning tarixida shunday orzular bo'ladiki, ular avloddan avlodga o'tib, nihoyat ro'yobga chiqadi. O'z fazogirini



koinotga uchirish ana shunday ulug' orzularidan biridir. Bir paytlar insonning fazoga uchishi ertakdek tuyulardi, bugun esa bu erishsa bo'ladigan, aniq maqsadga aylanmoqda. O'zbekiston ana shu buyuk orzu sari dadil qadam tashlayotgani millat salohiyati va irodasining naqadar kuchli ekanini ko'rsatadi. Va bu orzuning ro'yobga chiqishi, shubhasiz, butun bir avlodni ilm-fan va taraqqiyot sari ilhomlantiradi, ularda «biz ham qila olamiz» degan ishonchni mustahkamlaydi.

O'ZBEKISTON JAHONGA ILG'OR TASHABBUSLARNI TAKLIF ETADIGAN MARKAZGA AYLANMOQDA

Prezidentimiz o'z orzu-niyatini ochiq va dadil ifoda etib, shunday dedi: **«Mening niyatim: O'zbekiston texnologiya sohalarida jahonga ilg'or tashabbuslarni taklif qiladigan markazga aylanishi zarur».**

Mamlakatimizning texnologiya sohalarida jahonga ilg'or tashabbuslarni taklif

etuvchi markazga aylanishi bizning global raqamli iqtisodiyotda iste'molchi emas, balki tashabbuskor va yetakchi ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishimizni anglatadi. Bu jarayon zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi, sun'iy intellekt, «yashil» texnologiyalar, muhandislik va startup ekotizimini qo'llab-quvvatlash orqali xalqaro miqyosda raqobatbardosh yechimlar ishlab chiqishga qaratilgan. Natijada O'zbekiston xorijiy sarmoyalar, xalqaro texnologik kompaniyalar va intellektual resurslarni o'ziga jalb qiluvchi mintaqaviy markaz maqomini mustahkamlaydi.

Prezidentning **«Mening niyatim...»** deb boshlangan so'zlarida bir davlat rahbarining uzoqni ko'zlagan orzusi va qat'iy irodasi mujassam. Dunyo texnologiyalarini faqat sotib oluvchi va iste'mol qiluvchi bo'lib qolish – bu doimiy qaramlik demakdir. O'z texnologiyalarini yaratadigan, o'z ishlanmalarini dunyoga taklif etadigan davlat esa chinakam mustaqil va raqobatbardosh bo'ladi. Ana shu bois O'zbekistonni texnologiya yaratuvchi markazga aylantirish millat kelajagining kaliti va intellektual suverenitetning asosidir. Buning uchun esa avvalo bilimli, ijodkor va zamonaviy ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalash, ularga keng imkoniyat va sharoit yaratib berish zarur. Prezidentimiz aynan shu yo'ldan bormoqda.

O'ZBEK TILI – RAQAMLI DUNYODA ILM VA TEXNOLOGIYA YARATILADIGAN TIL

Prezidentimiz ona tilimizning raqamli davr talablariga javob berishini strategik vazifa sifatida belgilab, shunday dedi: **«O'zbek tili – raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo'lishi lozim».**

O'zbek tilining raqamli dunyoda nafaqat muloqot, balki ilm-fan, dasturlash va ilg'or texnologiyalar yaratiladigan tilga aylanishi zamon talabi va milliy taraqqiyotning muhim shartidir. Bu maqsadga erishish ona tilimizda yirik raqamli kontent, ilmiy ma'lumotlar bazalari va milliy sun'iy intellekt modelarini yaratishni talab etadi. Til zamonaviy texnologiyalar tiliga aylansagina, u global axborot maydonida o'z o'rnini saqlab qoladi, raqobatbardosh bo'ladi va yangi avlodning ilmiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Bu jarayonning strategik ahamiyati shundaki, u milliy axborot va texnologik mustaqillikni ta'minlaydi. Ilm-fan va texnologiyalarining o'zbek tilida rivojlanishi yoshlarning bilim olishini yengillashtiradi, ta'limni aholimizning barcha qatlamlariga yaqinlashtiradi hamda mahalliy innovatsiyalar ko'lamini kengaytiradi. Ona tilida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ilmiy kashfiyotlar jamiyatni yangi intellektual bosqichga olib chiqish

bilan birga, o'zbek tilining global raqamli sivilizatsiyadagi maqomini yuqori pog'ona-ga ko'taradi.

Fazoni zabt etish, sun'iy yo'ldosh uchirish va ona tilini texnologiya tiliga aylantirish – bular bir qarashda bir-biridan uzoq mavzulardek tuyuladi. Aslida esa ularning barchasi bitta ulug' g'oyaga – millatning intellektual mustaqilligiga xizmat qiladi. O'z sun'iy yo'ldoshiga ega bo'lgan, kosmik tadqiqotlar olib boradigan, ona tilida ilm va texnologiya yaratadigan xalq chinakam mustaqil va suveren xalqdir. Prezidentimiz aynan ana shu intellektual va texnologik suverenitetni Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi sifatida belgilamoqda. Bu XXI asr mustaqilligining yangi, zamonaviy va teran mazmunidir.

Ayniqsa, yosh avlod uchun bunday ulkan ilmiy-texnologik yutuqlar kuchli ilhom manbayi bo'ladi. O'z yurtdoshi fazoga uchganini, o'z mamlakati dunyo texnologiyasiga hissa qo'shayotganini ko'rgan yoshlar albat-ta katta orzular bilan yashaydi, aniq fanlarga, muhandislikka va ilmga intiladi. Ana shu orzu va intilish – kelajak olimlari, ixtirochilari va bunyodkorlarini yetishtiradigan eng kuchli ma'naviy kuch. Demak, «Samarqand – 2028» sun'iy yo'ldoshi shunchaki texnik qurilma emas, balki butun bir avlodni ilm va taraqqiyot sari yetaklaydigan mayoqdir.



XALQNING UMRI UZAYMOQDA

TIBBIY XIZMATDA MARKAZ VA HUDUDLAR MUVOZANATI

Prezidentimiz inson sog'lig'ini inson qadrining ajralmas qismi sifatida ko'rib, shunday dedi: **«Inson qadri haqida so'z yuritganda, aholimizning sog'lig'i masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz tabiiy. So'nggi yillarda ushbu sohaga ajratilayotgan mablag'ni 8 karradan ziyod oshirdik. Eng muhimi, sifatli tibbiy xizmat olish imkoniyati nafaqat markazda, balki hududlarda ham yaratildi».**

Sohaga ajratilayotgan mablag'ning sak-kiz karradan ziyod oshirilishi davlatning xalq salomatligiga bergan ustuvor e'tiborini yaqqol ko'rsatadi. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimidagi asosiy islohotlardan biri ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni poytaxtdan hududlarga tushirish va birlamchi bo'g'inni kuchaytirishga qaratildi. Ilgari faqat katta shaharlarda amalga oshirilgan murakkab jarrohlik amaliyotlari, onkologik, kardio-logik va travmatologik davolash jarayonlari

endi viloyat filiallari hamda tumanlararo markazlarda yo'lga qo'yilmoqda. Natijada, chekka hududlarda yashovchi aholining markazga borish ehtiyoji keskin qisqarib, mahalliy darajada yuqori texnologik yordam olish imkoniyati yaratildi.

Sohadagi muvozanatni ta'minlashda raqamli tibbiyot va telemeditsina muhim ko'prik vazifasini bajarmoqda. Markaziy ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va viloyat



shifoxonalari o'rtasida onlayn konsiliumlar, masofaviy tashxis tizimlari yo'lga qo'yildi. «Qishloq shifokori» dasturi doirasida olis hududlarga malakali mutaxassislar jalb etilib, poytaxtning yetakchi olim va shifokorlari viloyatlarga muntazam master-klasslar uchun yuborilmoqda. Bunday yondashuv poytaxt va hududlar o'rtasidagi tibbiy salohiyat farqini minimallashtirib, har bir fuqaro uchun yashash joyidan qat'i nazar teng, sifatli va kafolatlangan tibbiy xizmat muhitini shakllantirmoqda.

Tibbiy xizmatni markazdan hududlarga olib chiqish – bu adolat va insonparvarlikning amaliy ifodasidir. Avvalgi davrlarda chekka tuman va qishloqlarda yashovchi odam jiddiy kasallikka chalinsa, davolanish uchun poytaxtga yoki katta shaharga borishi, buning uchun katta xarajat va vaqt sarflashi kerak edi. Bu esa ko'p hollarda kasallikni o'z vaqtida davolashga to'sqinlik qilardi. Bugun esa zamonaviy tibbiy xizmat insonning yoniga, uning o'z hududiga olib kelinmoqda.

Ana shu yondashuv «inson qadri» g'oyasi-ni tibbiyot sohasidagi eng yorqin namunasidir: inson qayerda yashashidan qat'i nazar, sifatli va kafolatlangan tibbiy yordam olish huquqiga ega.

MURAKKAB DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH USULLARI ENDI YURTIMIZDA

Prezidentimiz tibbiyot sohasidagi texnologik sakrashni aniq raqamlar bilan bayon etib, shunday dedi: **«O'tgan davrda yurtimizda 652 ta yangi tibbiyot muassasasi barpo etilgani, xususiy sektorga keng imkoniyat berilgani tufayli tibbiy xizmatlar hajmi 3 karra oshdi. Yuqori malakali shifokorlar tayyorlashni yo'lga qo'yib, ularga sharoit yaratganimiz o'z natijasini beryapti. Ilgari xorijda amalga oshirilgan 100 dan ziyod murakkab diagnostika va davolash usullari bugun yurtimizda ham mukammal bajarilmoqda».**

Ilgari faqat xorijda amalga oshirilgan jigar, buyrak va ilik transplantatsiyasi, murakkab kardiojarrohlik va robotlashtirilgan minimal invaziv amaliyotlar endilikda mamlakatimizning o'zida muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Diagnostika sohasida esa PET-KT, raqamli angiografiya va genetik tahlil kabi ilg'or usullarning joriy etilishi kasalliklarni ilk bosqichlarda, hujayra va molekulyar darajada aniqlash imkonini berdi. Bu esa aholining xorijga davolanish uchun ketish oqimini keskin kamaytirdi.

Xalqaro standartlarga mos innovatsion davolash protokollari, maqsadli va immunoterapiyaning yo'lga qo'yilishi, ayniqsa, onkologik va noyob kasalliklarga chalingan

bemorlarning hayot sifati va umr ko'rish davomiyligini sezilarli darajada oshirmoqda. Kelgusida asosiy e'tibor bu murakkab texnologiyalarni nafaqat poytaxtda, balki barcha viloyat markazlarida ham to'liq joriy etishga, sun'iy intellekt yordamida tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, personallashtirilgan tibbiyot va 3D bioprinting usullarini rivojlantirishga qaratiladi.

Kelajakda tibbiyot sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi jahon tibbiyotidagi eng istiqbolli yo'nalishdir. Sun'iy intellekt yordamida tibbiy tasvirlarni tahlil qilish kasalliklarni inson ko'zi ilg'amaydigan darajada erta va aniq tashxislash imkonini beradi. Personallashtirilgan

tibbiyot esa har bir bemorga uning genetik xususiyatlari va organizmi o'ziga xosligidan kelib chiqib, aynan moslashtirilgan davolash usulini taklif etadi. O'zbekistonning ana shunday ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishga intilayotgani tibbiyotimiz jahon miqyosida raqobatbardosh bo'lishining kafolatidir. Bu esa, pirovardida, har bir fuqaroning sog'ligini saqlashga, uning umrini uzaytirishga xizmat qiladi.

XALQNING O'RTACHA UMRI UZAYMOQDA

Prezidentimiz sohadagi islohotlarning eng muhim natijasini alohida ta'kidlab, shunday dedi: **«Umuman, aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1991-yildagi 66,4 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga yetgani, go'daklar va onalar o'limi ko'rsatkichi 4 barobar kamaygani sohadagi islohotlarimizning eng muhim natijasidir».**

To'qqiz yilga uzaygan o'rtacha umr – bu quruq statistika emas, balki millionlab oilalarning baxti, ota-onalarning farzandlari davrasida uzoq umr ko'rish, nabiralarning bobolari mehrini tuyishi demakdir. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, birlamchi tibbiy yordam sifatini oshirish hamda kasalliklarni erta aniqlashga qaratilgan islohotlar natijasida ushbu ko'rsatkichga erishildi. Go'daklar



va onalar o'limi ko'rsatkichining to'rt barobar kamayishi esa har bir oila uchun beqiyos ahamiyatga ega.

O'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi faqat tibbiy yutuq emas, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va turmush farovonligining muhim ko'rsatkichidir. Bu omil toza ichimlik suvi va sifatli oziq-ovqat ta'minoti kengaygani, sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganining amaliy ifodasidir. Umrning uzayishi inson kapitalini mustahkamlab, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va kelajakka bo'lgan ishonchni kuchaytiradi.

Inson umrining to'qqiz yilga uzayishi naqadar ulkan yutuq ekanini tasavvur qilish uchun bitta haqiqatni eslash kifoya: bu har bir oilada bobolar va momolarning nabiralari kamolini ko'rish, ota-onalarning farzandlari baxtidan bahramand bo'lishi uchun





qo'shimcha yillar demakdir. Umr – insonga berilgan eng qimmatli ne'mat va bu ne'matni uzaytirish, uni sog'lom va mazmunli qilish davlatning o'z fuqarosi oldidagi eng oliy burchidir. Ana shu burchni O'zbekiston izchillik bilan ado etayotgani sog'liqni

saqlash sohasidagi islohotlarning chinakam insonparvar mohiyatini ko'rsatadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlar, shuningdek, mamlakat iqtisodiy taraqqiyo-tining ham muhim omilidir. Sog'lom xalq faol, mehnatsevar va ijodkor xalqdir. Aholi-niing sog'ligi mustahkam, umri uzoq bo'lsa, insonlar uzoq yillar davomida iqtisodiyot, ilm-fan va ijtimoiy hayotga samarali hissa qo'sha oladi. Shu bois tibbiyotga ajratilayot-gan mablag' – bu xarajat emas, balki millat kelajagiga qilinayotgan eng foydali sarmoya-dir. Prezidentimizning sog'liqni saqlash ma-salasini «inson qadri» g'oyasi bilan uzviy bog'lashi ana shu teran haqiqatga asos-lanadi.



BEBAHO MEROSGA MUNOSIB ISHLAR




ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI

Prezidentimiz xalqimizning boy ma'naviy merosiga munosib bunyodkorlik ishlarini ta'kidlab, shunday dedi: **«Jonajon Vatanimiz azaldan ulug' mutafakkirlar, aziz avliyolar, buyuk allomalar yurti bo'lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosga munosib ravishda Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy yodgor-**

lik majmualari kabi betakror ilmiy-ma'rifiy dargohlarni barpo etdik. Bu muhtasham va tabarruk maskanlar bugun nafaqat yurtimiz va islom olami, balki butun jahon ahlining haqli e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Biz bunday bunyodkorlik ishlarini jadal davom ettiramiz».

Toshkent shahrining tarixiy Hazrati Imom (Xastimom) majmuasi hududida qad rostlagan Islom sivilizatsiyasi markazi milliy va sharqona me'morchilik an'alarini o'zida mujassam etgan ulkan ilmiy-ma'rifiy dargohdir. Ushbu markaz ulkan muzey, boy kutubxona, noyob qo'lyozmalar fondi, anjumanlar zallari hamda ilmiy-tadqiqot bo'limlarini o'z ichiga oladi. Majmua markazida muqaddas Usmon Mus'hafi uchun maxsus joy ajratilgan bo'lib, binoning umumiy tuzilishi va ekspozitsiyalari xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy ma'naviy merosini namoyon etishga moslashtirilgan.

Dunyodagi eng qadimiy Qur'on nusxalaridan biri – Usmon Mus'hafining aynan





bizning zaminimizda saqlanayotgani buyuk tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Bu muqaddas yodgorlik O'zbekiston azaldan islom ilmi va ma'rifatining yirik markazi bo'lganini tasdiqlaydi. Islom sivilizatsiyasi markazi ana shunday noyob ma'naviy boyliklarni jahon hamjamiyatiga namoyish etish, ajdodlarimizning ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini ko'rsatish uchun barpo etildi. Bu maskan orqali butun dunyo O'zbekistonning chinakam ma'rifat, tinchlik va bunyodkorlik diyori ekanini yana bir bor anglamoqda.

Markazning ulkan tarixiy ahamiyati shundaki, u zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar – Imom Buxoriy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek kabi daholarning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini yaxlit tarixiy tizim sifatida taqdim etadi. Ushbu maskan islom dinining asl mohiyati bo'lgan ma'rifat, tinchlik, bag'rikenglik

va ilm-fanga intilish ekanini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatish hamda Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarining ilmiy merosini chuqur tiklashda asosiy platforma vazifasini bajaradi.

Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat muzey, balki xalqaro darajadagi ilmiy-tadqiqot markazi hamdir. U yerda qadimiy nodir qo'lyozmalarni saqlash, restavratsiya qilish va raqamlashtirish orqali ularni kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, dunyoning yetakchi sharqshunos va islomshunos olimlari bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa Yangi O'zbekistonda ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g'oyasining muhim ma'naviy poydevoriga aylanmoqda.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy maskanlarning barpo etilishi, ayniqsa, bugungi murakkab va ziddiyatli dunyoda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni damda – turli buzg'unchi oqimlar, mutaassib va yot g'oyalar yoshlar ongini zaharlashga urinayotgan bir sharoitda,

BIRLASHIB, BUYUK TARIX YARATAMIZ!

islom dinining asl – ma'rifatli, tinchliksevar va bag'rikeng qiyofasini ko'rsatish nihoyatda muhimdir. Ana shu maskanlar orqali dunyoga bir haqiqat namoyish etilmoqda: islom dini – bu jaholat emas, ma'rifat; zo'ravonlik emas, tinchlik; ixtilof emas, birlik va mehr-oqibat dinidir. Bizning buyuk allomalarimiz ana shu nurli yo'lni asrlar avval ko'rsatib ketgan, bugun esa biz o'sha merosni tiklab, butun dunyoga ibrat qilib ko'rsatmoqdamiz.

IMOM BUXORIY YODGORLIK MAJMUASI

Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Xartang qishlog'ida joylashgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi buyuk muhadis, hadis ilmining sultoni Abu Abdulloh

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning abadiy qo'nim topgan muqaddas qadamjosidir. Dastlab 1998-yilda allomaning 1225 yilligi munosabati bilan barpo etilgan ushbu maskan so'nggi yillarda Sharq me'morchiligi an'analari asosida tubdan qayta qurilib, o'n minglab namozxonlarni sig'dira oladigan ulkan jome masjidi, maqbara, muhtasham minoralar, ma'muriy binolar va zamonaviy infratuzilmani o'z ichiga olgan ziyorat markaziga aylantirildi.

Majmuaning tarixiy va diniy ahamiyati Imom Buxoriyning islom olamidagi beqiyos maqomi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ajdodimiz to'plagan «Al-jomi' as-sahih» asari islom olamida Qur'oni karimdan keyingi





ikkinchi eng ishonchli manba sifatida tan olinadi. Mazkur yodgorlik nafaqat buyuk allomaga ko'rsatilgan ehtirom ramzi, balki Movarounnahrning islom sivilizatsiyasi va hadis ilmi rivojida yetakchi markazi bo'lganini tasdiqlovchi muhim tarixiy obidadir. Bugungi kunda majmua qoshida faoliyat yuritayotgan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Hadis ilmi maktabi allomalarning boy merosini chuqur o'rganish hamda mutaassiblikka qarshi ma'rifat bilan kurashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Imom Buxoriy nomi butun musulmon olamida chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi. Ana shunday buyuk allomaning aynan bizning zaminimizdan yetishib chiqqani har bir yurtdoshimiz uchun beqiyos g'urur manbayidir. Uning qabri ustida barpo etilgan muhtasham ziyoratgoh dunyoning turli burchaklaridan keladigan millionlab ziyoratchilarni o'ziga jalb etmoqda. Bu esa nafaqat ma'naviy, balki iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega – ziyorat turizmi rivojlanib, hudud obod bo'lmoqda, minglab odamlar ish bilan ta'minlanmoqda. Demak, ajdodlar merosini tiklash ham ma'naviy, ham moddiy farovonlikka xizmat qiladi.

BURHONIDDIN MARG'INONIY YODGORLIK MAJMUASI

Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida qad rostlagan Burhoniddin Marg'inoniy yodgorlik majmuasi buyuk faqih, islom huquqshunosligining yetuk namoyandasi Burhoniddin al-Marg'inoniy xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan muhtasham me'moriy obidadir. Ushbu yodgorlik 2000-yilda alloma tavalludining 910 yilligi munosabati bilan qurilgan bo'lib, Sharq milliy me'morchiligi an'analari – yog'och o'ymakorligi, naqshinkor ustunlar va firuzarang gumbazli rotunda uslubida qad ko'targan.

Majmuaning ulkan tarixiy ahamiyati alomaning islom huquqi – fiqh rivojiga qo'shgan bebaho hissasi bilan chambarchas bog'liqdir. Burhoniddin Marg'inoniy tomonidan yozilgan shoh asar – «Al-Hidoya» asrlar davomida butun musulmon olamida, jumladan, Movarounnahr, Yaqin Sharq va Hindistonda asosiy huquqiy qo'llanma va qonunchilik manbasi sifatida xizmat qilgan. Bu majmua Marg'ilon va umuman, O'zbekiston zamini nafaqat hadis va tabiiy fanlar, balki dunyo huquqiy tafakkuri va adolat mezonlarini shakllantirgan yirik markaz bo'lganini tarixiy jihatdan tasdiqlaydi. Bugungi kunda maskan yosh avlodga adolat, halollik va qonun ustuvorligi tamoyillarini anglatishda tarbiyaviy markaz bo'lib xizmat qilmoqda.



Imom Buxoriy, Burhoniddin Margʻiloniy, Imom Moturidiy, Hakim Termiziy singari buyuk ajdodlarimiz butun islom olamida eʼzozlanadigan allomalardir. Ular qoldirgan meros nafaqat bizning, balki butun insoniyatning maʼnaviy boyligidir. Ana shu bois ushbu ziyoratgoh va ilmiy markazlarning zamona-viy darajada tiklanishi xalqaro hamjamiyatda katta eʼtirofga sazovor boʻlmoqda. Dunyoning turli burchaklaridan minglab ziyoratchilar, olimlar va mehmonlar bu maskanlarga tashrif buyurmoqda. Bu esa Oʻzbekistonning islom sivilizatsiyasi va maʼrifati markazi sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlaydi.

Ajdodlar merosini tiklash – bu shunchaki bino qurish emas, balki milliy oʻzlikni, tarixiy xotirani va maʼnaviy qadriyatlarni tiklashdir. Ushbu muqaddas maskanlar, ayniqsa, yosh avlod uchun chinakam maʼnaviy maktabdir. Ular yoshlarga islom dinining asl mohiyati maʼrifat, tinchlik, bagʻrikenglik, ilmga intilish va ezgulik ekanini koʻrsatadi, turli buzgʻunchi va mutaassib gʻoyalardan asraydi. Prezidentimiz bunday bunyodkorlik ishlarini «jadal davom ettiramiz» der ekan, u aslida millatning maʼnaviy immunitetini mustahkamlash, yoshlarni sogʻlom eʼtiqod va toʻgʻri dunyoqarash ruhida tarbiyalashni nazarda tutmoqda.



ERTANGI KUNIMIZNING HAL QILUVCHI KUCHI



YOSHLARGA KENG IMKONIYATLAR YOʻLI

Prezidentimiz yoshlarni mamlakatning eng katta boyligi deb bilib, shunday dedi: **«Bizning eng katta boyligimiz – ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi boʻlgan Yangi Oʻzbekiston yoshlaridir. Intiluvchan va tirishqoq oʻgʻil-qizlarimizni qoʻllab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar ochish uchun har yili 20–25 trillion soʻm ajratilmoqda».**

Har yili 20–25 trillion soʻm mablagʻning yoshlar zimmasiga yoʻnaltirilishi davlatning kelajakka qilayotgan eng katta sarmoyasidir. Yangi Oʻzbekistonda yoshlar siyosatining mustahkam huquqiy asosi «Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida»gi Qonun va yangi tahrirdagi Konstitutsiya bilan belgilangan. Yoshlar ishlari agentligi hamda har bir mahallada joriy etilgan «yoshlar yetakchisi» lavozimi orqali ularning muammolarini



bevosita mahalla darajasida hal etish tizimi yo'lga qo'yildi.

«Yoshlar daftari» jamg'armasi orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Tadbirkor yoshlar uchun «Har bir oila – tadbirkor» va «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Ta'lim sohasida esa «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali iqtidorli yigit-qizlarga dunyoning TOP-100 va TOP-300 ro'yxatiga kirgan yetakchi xorijiy oliygohlarda davlat granti hisobidan o'qish imkoniyati berilmoqda.

Yoshlarni mamlakatning **«eng katta boyligi» va «ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi»** deb ta'riflash Prezident siyosatining bosh tamoyillaridan biridir. Darhaqiqat,

bugungi yoshlar ertangi kunda mamlakatni boshqaradigan, iqtisodiyotni rivojlantiradigan, ilm-fanni oldinga olib boradigan avlod-dir. Ularga bugun qanchalik e'tibor berilsa, sharoit va imkoniyat yaratilsa, ertaga ular mamlakatga shunchalik ko'p foyda keltiradi. Har yili 20–25 trillion so'm mablag'ning yoshlarga yo'naltirilishi – bu davlatning ana shu haqiqatni chuqur anglagani va kelajakka uzoqni ko'zlab sarmoya kiritayotganining yorqin dalilidir. Bu har qanday zavod yoki korxonaga qilingan sarmoyadan ham ko'proq foyda beradigan, millat kelajagini belgilaydigan eng oqilona investitsiyadir.

Muhimi shundaki, Yangi O'zbekistonda yoshlar nafaqat g'amxo'rlik obyekti, balki jamiyat va davlat hayotining faol ishtirokchisi,



tashabbuskor kuchi sifatida ko'rilmogda. Har bir mahallada «yoshlar yetakchisi» lavozimining joriy etilishi, yoshlarning mahalliy boshqaruv va ijtimoiy hayotga keng jalb qilinishi ularda fuqarolik mas'uliyati va yetakchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Yoshlar o'z fikri eshitilayotganini, o'z tashabbusi qo'llab-quvvatlanayotganini his qilsa, jamiyatga nisbatan faol va mas'uliyatli munosabatda bo'ladi. Ana shunday faol, tashabbuskor va vatanparvar yoshlar Yangi O'zbekistonning chinakam bunyodkorlari va ertangi kunining ishonchli egalari-dir.

YOSH TADBIRKOR – YURTGA MADADKOR

Prezidentimiz yoshlarning iqtisodiy faol-ligini quvonch bilan ta'kidlab, shunday dedi: **«Bugungi kunda O'zbekistondagi biznes vakillarining 35 foizini yosh tadbirkorlar tashkil etyapti».**

Har uch tadbirkordan birining yosh bo'lishi millat tadbirkorlik ruhi va tashabbuskorligining yorqin ifodasidir. Yangi O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib, keng qamrovli moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar tizimi yaratildi. Imtiyozli kreditlar, mikroqarzlar, subsidiyalar, «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari» va IT-Park rezidentligidagi soliq imtiyozlari yosh ish-bilarmonlarga dastlabki qadam-danoq mustahkam tayanch bo'lmoqda. Bu esa mamlakatda kuchli o'rta mulkdorlar sinfining mustahkamlanishiga va barqaror iqtisodiy o'sishga zamin yaratadi.

Yoshlarning tadbirkorlikka keng jalb etilishi bir necha jihatdan katta ahamiyatga ega. **Birinchidan**, yosh tadbirkor o'ziga ish o'rni yaratibgina qolmay, boshqalarni ham ish bilan ta'minlaydi, shu orqali jamiyatda ishsizlik muammosini kamaytiradi. **Ikkinchidan**, tadbirkorlik yoshlarni mustaqil fikrlashga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga,





tavakkal qilish va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, bu esa chinakam yetuk shaxsni shakllantiradi. ***Uchinchi***dan, yosh tadbirkorlar ko'pincha aynan zamonaviy, innovatsion va raqamli sohalarda faol bo'lib, milliy iqtisodiyotning texnologik yangilanishida yetakchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Demak, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash – bu nafaqat iqtisodiy, balki chuqur ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega siyosatdir.

O'ZBEK SPORTI TARIXIDA YANGI SAHIFA OCHILDI

Prezidentimiz yosh sportchilarimizning tarixiy yutuqlarini faxr bilan tilga olib, shunday dedi: ***«Tokio va Parij Olimpiya hamda Paralimpiya o'yinlarida, dunyo maydonlarida yosh sportchilarimiz erishgan tarixiy yutuqlar xalqimizga cheksiz iftixor bag'ishladi». Ayniqsa, futbol sohasidagi yutuqni alohida qayd etib, u shunday dedi:***

«Futbolchilarimiz ilk bor jahon chempionatida ishtirok etib, o'zbek sporti tarixida yangi sahifa ochdi. Ular boshlagan yo'l albatta davomli va zafarli bo'ladi deb ishonamiz».

Darhaqiqat, so'nggi yillarda o'zbek sporti dunyo maydonlarida chinakam zafarlar qozondi. Parij Olimpiadasida milliy terma jamoamiz misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishib, ko'plab oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdi, umumjamoahisobida Markaziy Osiyo va mintaqa davlatlari orasida yetakchilikni qo'lga oldi. Paralimpiyachilarimiz ham yuksak iroda va rekord natijalarni namoyish etib, yurtimiz parasportning eng kuchli markazlaridan biriga aylanganini isbotladi. O'zbekiston futbol terma jamoasining ilk bor jahon chempionatiga yo'l olishi esa millat uchun chinakam bayram bo'ldi. Bu yutuqlar millionlab yoshlarda sportga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib,

milliy g'urur, jismoniy faollik va sog'lom turmush tarzini ommalashtirishda kuchli tarbiyaviy vosita bo'lmoqda.

Sport yutuqlari orqasida yillar davomida olib borilgan tizimli davlat siyosati, zamonaviy sport inshootlari, malakali murabbiylar va yosh sportchilarni saralash tizimi turadi. Har bir medal – bu sportchining yillar davomidagi mashaqqatli mehnati, irodasi va matonati, shuningdek, unga sharoit yaratib bergan davlat va xalq e'tiborining samarasidir. Ayniqsa, futbol xalqimiz eng sevib tomosha qiladigan sport turi bo'lgani bois, milliy terma jamoaning ilk bor jahon chempionatiga yo'l olishi butun mamlakatni bir tan, bir jon qilib birlashtirdi. Mana shunday g'alabali lahzalarda millat yosh-u qari, erkak-u ayol demay, yagona quvonch va iftixor tuyg'usi bilan yashaydi. Bu sportning millatni birlashtiruvchi buyuk kuchidir.



JAVOHIR SHAXMAT TOJINI YURTIGA OLIB KELADI

Prezidentimiz intellektual sportdagi katta voqealarni xabar qilib, shunday dedi: **«Yaqin kunlarda Samarqandda katta sport anjumani – Jahon shaxmat olimpiadasi boshlanadi. Noyabr oyida esa mashhur grossmeysterimiz Javohir Sindorov jahon shaxmat toji uchun kurashga kirishadi».** Davlatimiz rahbari yosh shaxmatchilarga tilak bildirib, shunday dedi: **«Ushbu musobaqalarda shaxmatchi o'g'il-qizlarimga ulkan zafarlar tilayman!»**

So'nggi yillarda O'zbekiston shaxmat bo'yicha dunyoning eng kuchli va yetakchi mamlakatlari qatoridan mustahkam o'rin egalladi. Mamlakat terma jamoasi 2022-yilda Chennayda o'tkazilgan 44-Butunjahon

shaxmat olimpiadasida birorta ham mag'lubiyatga uchramasdan tarixiy oltin medalni qo'lga kiritdi. Yosh grossmeysterlarning jahon chempionatlaridagi muvaffaqiyatlari, Nodirbek Abdusattorovning jahon chempioni bo'lishi o'zbek shaxmat maktabini global fenomenga aylantirdi. Javohir Sindorov esa 12 yoshida grossmeysterlik unvoniga ega bo'lib, elita darajasidagi barqaror o'yinlarini namoyish etib kelmoqda. 2026-yilda Butunjahon shaxmat olimpiadasining aynan O'zbekistonda o'tkazilishi yurtimizning jahon shaxmatidagi yetakchilik maqomini yanada mustahkamlaydi.

Shaxmat – bu aql, zehn, sabr va strategik fikrlash o'yinidir. O'zbek yoshlarining aynan shaxmat kabi intellektual sohada dunyo cho'qqilarini zabt etayotgani millat tafak-

kurining teranligi va salohiyatining yuksakligidan dalolat beradi. Prezidentimizning yosh grossmeyster Javohir Sindorovga jahon toji uchun kurashda zafar tilashi butun xalqning ana shu iqtidorli farzandga bo'lgan ishonchi va mehrining ifodasidir. Shaxmatdagi yutuqlar mamlakatda ushbu sport turiga qiziqishni keskin oshirmoqda, maktablarda shaxmat to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda, minglab bolalar ana shu dono o'yin orqali fikrlash va mulohaza yuritish ko'nikmalarini egallamoqda. Bu esa kelajakda nafaqat chempionlar, balki chuqur va mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

YANGI O'ZBEKISTON YULDUZLARI, KELAJAK BUNYODKORLARI

Prezidentimiz xalqaro fan olimpiadalarida g'alaba qozonayotgan yoshlarni faxr bilan ulug'lab, shunday dedi: **«Xalqaro fan olimpiadalarida, tanlov va festivallarda yuqori o'rinlarni egallayotgan yoshlarimizni Yangi O'zbekiston yulduzlari, kelajak bunyodkorlari deb bilaman!»** Davlatimiz rahbari ularga otalarcha mehr bilan murojaat etib, shunday dedi: «Oldinga qarab intilishdan va doimiy izlanishdan hech qachon to'xtamang, aziz farzandlarim!»

Bu so'zlarda bir davlat rahbarining yosh avlodga bo'lgan cheksiz ishonchi va mehri



mujassam. So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlari nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida matematika, fizika, kimyo, biologiya va informatika bo'yicha tarixiy natijalarni qayd etmoqda, o'nlab oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritmoqda. Bu yutuqlar zahirida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ining kengayishi, olimpiada g'oliblari va ularning ustozlarini yirik mukofotlar bilan rag'batlantirish tizimi yotadi. Ana shu intellektual yoshlar kelajak-

da ilmiy tadqiqotlar, sun'iy intellekt va global sanoat drayverlariga aylanib, Uchinchi Renessans poydevorini amalda shakllantiradi.

Prezidentning yoshlarga «aziz farzandlarim» deb murojaat qilishi nihoyatda ta'sirli va ramziydir. Bu murojaatda davlat rahbari bilan yosh avlod o'rtasidagi munosabat oddiy rasmiy doiradan chiqib, ota va farzand o'rtasidagi mehr-oqibat va mas'uliyat darajasiga ko'tariladi. Bunday samimiy, iliq va otalarcha munosabat yoshlarda davlatga, Vatanga va kelajakka nisbatan ishonch, minnatdorlik va mas'uliyat tuyg'usini kamol toptiradi. Yoshlar o'ziga ishonilganini, qadrlanganini va katta umidlar bog'langanini his qilsa, albatta ana

shu ishonchni oqlash uchun bor kuchi bilan intiladi.

Sport, intellektual musobaqalar va fan olimpiadalaridagi g'alabalar – bular nafaqat medallar va kuboklar, balki millat ruhiyatining, uning g'oliblik kayfiyati va intilishining ifodasidir. Yoshlarning dunyo maydonlarida ko'krak kerib turganini, davlat bayrog'i baland ko'tarilib, madhiya yangraganini ko'rgan har bir yurtdoshimiz qalbida g'urur va iftixor tuyg'usi jo'sh uradi. Aynan shunday g'alabalar millatni birlashtiradi, yoshlarni ulug' orzular sari yetaklaydi va «biz ham qila olamiz, biz ham g'olib bo'la olamiz» degan ishonchni mustahkamlaydi. Ana shu ishonch har qanday moddiy boylikdan ham qimmatli milliy sarmoyadir.





O'ZBEK XALQI TARAQQIYOTNING MUTLAQO YANGI DAVRIGA KIRMOQDA

YUKSALISHNING YETTI MILLIY DASTURI

Prezidentimiz mamlakat oldida turgan yangi, mas'uliyatli davrni ta'riflab, shunday dedi: **«Bugun biz tarixning yanada mas'uliyatli va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotning mutlaqo yangi davriga qadam qo'ymoqda. Kelgusi o'n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo'ladi. Buni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali o'zimiz bunyod etamiz. Shu maqsadda kelgusi yillarda yurtimizda inson qadrini yanada yuksaltiradigan 7 ta milliy dasturni amalga oshiramiz».**

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan «Yuksalishning yetti milliy dasturi» Yangi O'zbekiston taraqqiyotini keyingi bosqichga olib chiquvchi yaxlit, o'zaro chambarchas bog'langan strategik tizimdir. Ushbu dasturlar markaziga «inson qadri» va uning salohiyati qo'yilgan bo'lib, bilim va

malakani asosiy kapitalga aylantirish hamda aholining sog'lom va uzoq umr ko'rishini kafolatlash inson kapitalini yuksaltirishning bosh omili etib belgilangan. Bu ijtimoiy asos iqtisodiyotni yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar va yuqori mehnat unumdorligi modeliga o'tkazish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur dasturlar O'zbekistonning ekologik va institutsional barqarorligini ta'minlashda ham tarixiy ahamiyat kasb etadi. Suv resurslarini tejash va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirish iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat va ekologik xavfsizlikni kafolatlasa, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va qonun ustuvorligi investorlar ishonchi hamda har bir fuqaroning huquqiy himoyasini mustahkamlaydi. Mahallaning jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirilishi esa davlat va xalq o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri muloqotni

yangi darajaga olib chiqadi. Bu yetti dastur shunchaki tarmoq rejalari emas, balki barqaror iqtisodiyot, adolatli jamiyat, sog'lom ekologiya va kuchli inson kapitaliga tayanagan Uchinchi Renessans poydevorini qurishning aniq yo'l xaritasidir.

Yetti milliy dasturning eng e'tiborli jihati ularning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi va yaxlit tizim sifatida ishlashidir. Ularni alohida-alohida olib qarash mumkin emas: bilimli avlod bo'lmasa, yuqori texnologiyali iqtisodiyotni qurib bo'lmaydi; sog'lom xalq bo'lmasa, mehnat unumdorligini oshirishning iloji yo'q; adolatli sud va qonun ustuvorligi bo'lmasa, investorlar ishonchi va iqtisodiy erkinlik ta'minlanmaydi; toza suv va sog'lom tabiat bo'lmasa, kelajak avlodning hayoti xavf ostida qoladi. Demak, har bir dastur boshqalarining muvaffaqiyati uchun sharoit yaratadi, barchasi birgalikda esa yaxlit taraqqiyot zanjirini tashkil etadi.

Diqqatga sazovor yana bir jihat – yetti dasturning barchasi markazida inson turadi. Bilim va malaka inson uchun, sog'lom umr inson uchun, yuqori daromadli ish o'rni inson uchun, toza tabiat inson uchun, adolatli sud inson uchun, obod mahalla inson uchun, tinchlik va bag'rikenglik yana inson uchun. Ana shu insonparvarlik mantig'i «inson qadri» g'oyasini quruq shiordan aniq,



o'lchanishi mumkin bo'lgan amaliy dasturga aylantiradi. Prezidentimiz bu dasturlarni «inson qadrini yanada yuksaltiradigan» deb ta'riflar ekan, u Yangi O'zbekiston taraqqiyotining bosh mezoni va pirovard maqsadi – inson baxti va farovonligi ekanini yana bir bor ta'kidlamoqda.

Yetti milliy dastur – bu kelgusi o'n yillik uchun tuzilgan aniq va izchil yo'l xaritasidir. Ularda mavhum va'dalar emas, balki o'lchanishi mumkin bo'lgan aniq maqsadlar – foizlar, raqamlar, muddatlar belgilangan. Bu esa dasturlarning ijrosini nazorat qilish,

natijalarni baholash va mas'uliyatni aniq belgilash imkonini beradi. Ana shunday aniqlik va izchillik – Yangi O'zbekiston boshqaruv uslubining muhim fazilatidir. Har bir dastur bo'yicha aniq marralar qo'yilgani davlat organlari oldiga ham katta mas'uliyat yuklaydi, ular endi «ish qilindi» deb emas, «mana shunday aniq natijaga erishildi» deb hisobot berishlari kerak bo'ladi.

Ushbu dasturlarning muvaffaqiyati esa, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, faqat va faqat xalqning aql-zakovati, mehnati va bir-damligiga bog'liqdir. Davlat reja va sharoit yaratadi, ammo uni hayotga tatbiq etadigan asosiy kuch xalqning o'zidir. Har bir ustoz o'z o'quvchisiga sifatli bilim bersa, har bir shifokor bemorini mas'uliyat bilan davolasa, har bir tadbirkor halol mehnat qilsa, har bir fuqaro o'z burchini vijdonan ado etsa, ana shunda yetti milliy dastur to'liq ro'yobga chiqadi. Demak, milliy yuksalish – bu har bir yurtdoshning shaxsiy hissi va mas'uliyatidan tashkil topadigan umummilliy harakatdir.

BIRINCHI MILLIY DASTUR – BILIM VA MALAKA ASOSIY KAPITAL

Prezidentimiz birinchi milliy dasturning mohiyatini aniq bayon etib, shunday dedi: **«Birinchi milliy dastur bilim va malakani kelgusi taraqqiyotimizning asosiy kapitaliga aylantirishdan iborat bo'ladi. Bolalarning 6 yoshli tayyorlov guruhlariga qamrovini qisqa muddatda 100 foizga olib chiqamiz. Xususiy bog'cha tashkil qilish bo'yicha mavjud imtiyozlar saqlab qolinadi. Barcha maktablar xalqaro baholash dasturlari bilan to'liq qamrab olinadi».**

Davlatimiz rahbari kasb-hunar va oliy ta'lim bo'yicha dadil marralarni ham belgilab, shunday dedi: **«Yurtimizdagi texnikumlarda xalqaro ta'lim standartlarini joriy etamiz. Ularda yoshlarimizni yuqori daromadli kasblarga o'qitishni yo'lga qo'yib, qamrovni 1 millionga yetkazamiz. Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekistonda kasb egal-lamagan birorta yigit-qiz qolmaydi. Biz kelgusi yillarda kamida 10 ta universitetimizni TOP mingtalikka kiritishni katta marra sifatida belgilaymiz».**

Bu dasturda maktabgacha ta'lim tizimini mustahkamlash va barcha bolalar uchun

KELGUSI 10 YIL – MILLIY YUKSALISH DAVRI

Asosiy g'oya:

“Kelgusi 10 yillik biz uchun
milliy yuksalish davri bo'ladi.”



10 YIL
milliy yuksalish davri



7 TA
milliy dastur

BIRINCHI MILLIY DASTUR – BILIM VA MALAKA

Bilim va malakani taraqqiyotning asosiy kapitaliga aylantirish



1. MAQSAD
Bilim va malakani
kelgusi taraqqiyotning
asosiy kapitaliga
aylantirish.



2. 100%
6 yoshli bolalarning
tayyorlov
guruhlariga qamrovi



**3. XUSUSIY
BOG'CHALAR**
Xususiy bog'chalar
uchun imtiyozlarni
saqlash



**4. XALQARO
BAHOLASH**
Barcha maktablarni
xalqaro baholash
dasturlari bilan
qamrab olish



5. 1 MILLION
Yuqori daromadli
kasblarga o'qitish
qamrovini **1 millionga**
yetkazish



6. 10 ta
Kamida 10 ta
universitetni
TOP-1000 qatoriga
chiqarish

Texnikumlarda xalqaro ta'lim
standartlarini joriy etish

teng boshlang'ich imkoniyatlarni yaratish maqsadi ilgari surilgan. 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabga tayyorlov guruhlariga jalb etish ularning maktab dasturini oson o'zlashtirishi, ruhiy va intellektual jihatdan to'liq tayyor bo'lishini kafolatlaydi. Maktab ta'limi sifatini PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlari asosida baholash esa an'anaviy yodlash usulidan voz kechib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy mu-shohada va funksional savodxonlikni rivoj-lantirish imkonini beradi.

«Yangi O'zbekistonda kasb egalla-magan birorta yigit-qiz qolmaydi» degan maqsad mamlakatda ishsizlik va kambag'al-likni tizimli kamaytirib, iqtisodiyotni ma-lakali kadrlar bilan uzluksiz ta'minlovchi ijtimoiy lift vazifasini o'taydi. Kamida 10 ta milliy universitetning dunyoning nufuzli TOP-1000 taligiga kiritilishi esa oliygohlarda fundamental ilmiy tadqiqotlar sifatini oshi-rish, akademik erkinlikni mustahkamlash va milliy ta'lim tizimining xalqaro nufuzini yuk-saltirishni talab etadi.

Birinchi milliy dasturning **«bilim va ma-lakani asosiy kapitalga aylantirish»** degan nomi nihoyatda chuqur ma'noga ega. Zamonaviy dunyoda bir mamlakatning boyligi uning yer osti boyliklari yoki tabiiy resurslari bilan emas, avvalo xalqining bili-



mi, malakasi va intellektual salohiyati bilan o'lchanadi. Tabiiy boyliklar vaqt o'tishi bilan kamayishi mumkin, ammo bilim – bu tuga-nas, aksincha, qo'llangani sari ko'payadi-gan, avloddan avlodga o'tadigan va tobora boyiydigan kapital. Ana shu bois bilimli, ma-lakali va zamonaviy ko'nikmalarga ega avlod-ni tarbiyalash mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti va farovonligini ta'minlaydigan eng ishonchli yo'ldir. Prezidentimiz aynan shu haqiqatni davlat siyosatining birinchi va bosh ustuvor yo'nalishiga aylantirdi.

«Birorta kasb egallamagan yigit-qiz qolmaydi» degan maqsad ham oddiy shior emas, balki chuqur ijtimoiy adolat g'oyasi-ni ifodalaydi. Har bir yoshning qo'lida biror



hunar, kasb yoki mutaxassislik bo'lsa, u o'z oilasini boqa oladi, jamiyatda munosib o'rin topadi va hayotda ishonchli qadam tash-laydi. Kasbsiz, malakasiz qolgan yosh esa turli ijtimoiy muammolar girdobiga tushib qolish xavfi ostida bo'ladi. Demak, har bir yoshni kasb-hunarga o'rgatish – bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va millat xavfsizligini ta'minlaydigan strategik vazi-fadir.

IKKINCHI MILLIY DASTUR – XALQ SOG'LOM BO'LIB, UZOQ UMR KO'RSIN

Prezidentimiz ikkinchi milliy dasturning yo'nalishlarini bayon etib, shunday dedi: **«Ikkinchi milliy dastur xalqimizning sog'lom bo'lishi va uzoq umr ko'rishini ta'minlash-ga xizmat qiladi. Shu maqsadda aholi salo-matligi bilan bog'liq davlat xarajatlarini kelgusi besh yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkazamiz. Biz tibbiyot-da profilaktikani kuchaytirish orqali salo-matlikni asrash modeliga o'tamiz. Davlat tibbiy sug'urtasi mamlakatning barcha xonadonlariga kirib boradi».**

Davlatimiz rahbari sohadagi xalqaro raqo-bat va yuksak maqsadni ta'kidlab, shunday

dedi: **«Ixtisoslashgan tibbiyotda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida dunyoning eng nufuzli kamida 5 ta klinikasini olib kelimiz. Yurtimizni zamonaviy tibbiyot, farmasevtika, biotexnologiyalar va tibbiy ta'lim taraqqiy etgan maskanga aylantiramiz».**

Davlatning tibbiyot xarajatlarini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5 foizga yetkazish rejasi sohaga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini keskin oshirib, tibbiyot muassasalarini yangilash, zamonaviy uskunalar bilan

jihozlash hamda tibbiyot xodimlari mehnatini munosib rag'batlantirish uchun barqaror byudjet asosini yaratadi. «Kasallikni davolash» paradigmasidan «salomatlikni asrash va oldini olish» modeliga o'tish hamda davlat tibbiy sug'urtasining barcha xonadonlarni qamrab olishi har bir fuqaroga kafolatlangan, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkonini beradi.

Dunyoning kamida 5 ta eng nufuzli klinikasini mamlakatga jalb qilish ilg'or klinik protokollar, innovatsion davolash usullari



va xorijiy mutaxassislar tajribasini to'g'ridan to'g'ri yurtimizda qo'llash imkonini yaratadi. Bu transfer ichki bozorda xizmat sifatining oshishiga turtki berib, fuqarolarning chet elda davolanish ehtiyojini qisqartiradi va O'zbekistonni mintaqaviy tibbiy turizm markaziga aylantiradi.

Sog'liqni saqlashda **«kasallikni davolash»dan «salomatlikni asrash»ga** o'tish tibbiyot falsafasidagi tub burilishdir. Odatda inson kasal bo'lgandan keyingina shifokorga murojaat qiladi, ammo eng oqilona yo'l kasallikning oldini olish, uni ilk bosqichda aniqlash va xavfni bartaraf etishdir. Profilaktika va ommaviy tibbiy ko'riklar orqali ko'plab og'ir kasalliklarning oldini olish mumkin.

Bu esa ham inson sog'ligini saqlaydi, ham davolash uchun sarflanadigan katta xarajatlarni tejaydi. Davlat tibbiy sug'urtasining barcha xonadonlarga kirib borishi esa har bir fuqaroga, uning moddiy ahvolidan qat'i nazar, kafolatlangan va sifatli tibbiy yordamdan bahramand bo'lish imkonini beradi. Ana shunday tizim chinakam ijtimoiy adolat va insonparvarlikning ifodasidir.

Yurtimizni zamonaviy tibbiyot, farmasevtika, biotexnologiya va tibbiy ta'lim taraqqiy etgan maskanga aylantirish sog'liqni saqlash sohasining kelajagini belgilaydigan strategik maqsaddir. Dori-darmon va tibbiy vositalarni chetdan sotib olishga qaramlik mamlakat xavfsizligi uchun jiddiy xatar tug'diradi. Shu



bois mahalliy farmasevtika va biotexnologiya sanoatini rivojlantirish, o'z dori-darmonlarimizni ishlab chiqarish ham iqtisodiy, ham milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarishni yagona zanjirga birlashtirish orqali yurtimizda yuqori malakali shifokor va olimlar tayyorlanadi, zamonaviy dori va tibbiy texnologiyalar yaratiladi. Bu esa O'zbekistonni sog'liqni saqlash sohasida mustaqil, barqaror va yuqori texnologiyali davlatga aylantiradi.

UCHINCHI MILLIY DASTUR – IQTISODIYOTNI YUQORI TEXNOLOGIYA VA MEHNAT UNUMDORLIGI MODELIGA O'TKAZISH

Prezidentimiz uchinchi milliy dasturning iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniq raqamlar bilan bayon etib, shunday dedi: **«Uchinchi milliy dastur – iqtisodiyotimizni yuqori texnologiya va mehnat unumdorligi modeliga o'tkazish. Buning uchun kelgusi o'n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atini saqlagan holda, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmi 300 milliard dollarga yetkaziladi, sanoatda 2 millionta yuqori daromadli ish o'rni yaratiladi».**

Davlatimiz rahbari yoshlar salohiyati va biznesning o'sish zanjirini ta'kidlab, shunday dedi: «Yoshlarimizning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda startap, venchur va sun'iy intellektni rivojlantirish ustuvor yo'nalishga aylanadi. Shuningdek, kichik biznes o'rta biznesga, o'rta korxonalar esa yirik kompaniya va korporatsiyalarga aylanishi uchun yaxlit ekotizimni yo'lga qo'yamiz. Bularning hisobiga kelgusi o'n yilda jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 10 ming dollarlik marradan oshadi».

Kelgusi o'n yilda 450 milliard dollar xorijiy investitsiyani jalb etish orqali sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Bunday miqyosdagi kapital oqimi sanoatda 2 millionta yuqori daromadli, zamonaviy bilim va malaka talab qiluvchi ish o'rinlarini yaratish uchun mustahkam poydevor bo'ladi. Innovatsion g'oyalarga investitsiya kiritishning venchur mexanizmlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish yoshlarga global miqyosdagi texnologik loyihalarni mamlakat ichida amalga oshirish imkonini beradi.

«Kichik biznes tuzog'i»ni bartaraf etib, mikro va kichik korxonalarning o'rta biznesga, o'rta korxonalarning esa yirik kompaniya

va korporatsiyalarga aylanishini rag'batlantiruvchi moliyaviy, soliq va huquqiy mexanizmlar yaratiladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmining 10 ming dollardan oshishi esa O'zbekistonning daromadi o'rtadan yuqori bo'lgan rivojlangan davlatlar safiga rasman kirishini anglatadi. Bu natija mamlakatda qudratli o'rta sinfning mustahkamlanishiga va taraqqiyotning uzoq muddatli barqarorligiga kafolat yaratadi.

Iqtisodiyotni xomashyo sotishga asoslangan modeldan yuqori texnologiya va bilimga asoslangan modelga o'tkazish – bu



Yangi O'zbekiston iqtisodiy strategiyasining eng muhim yo'nalishidir. Xomashyo sotish vaqtinchalik daromad beradi, ammo unga qaramlik mamlakatni jahon bozoridagi narx o'zgarishlariga bog'liq, zaif va beqaror holatda qoldiradi. Yuqori texnologiya va mehnat unumdorligiga asoslangan iqtisodiyot esa barqaror, raqobatbardosh va mustaqil bo'ladi. Buning uchun esa avvalo bilim, malakali va ijodkor kadrlar zarur. Demak, uchinchi milliy dastur birinchi milliy dastur – ta'lim bilan uzviy bog'liq: bilimli avlod bo'lmasa, yuqori texnologiyali iqtisodiyotni ham qurib bo'lmaydi.

450 milliard dollar xorijiy investitsiya va sanoatda 2 million yuqori daromadli ish o'rni – bular quruq raqamlar emas, balki millionlab oilalar farovonligining, yoshlar kelajagining va mamlakat qudratining aniq ifodasidir. Har bir yangi ish o'rni – bu bir oilaning barqaror daromadi, uning farzandlarining ta'minlangan kelajagi demakdir. Jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 10 ming dollardan oshishi esa aholining turmush darajasi sezilarli yaxshilanishi, o'rta sinfning kengayishi va jamiyatda farovonlikning mustahkamlanishini anglatadi. Ana shunday iqtisodiy yuksalish «inson qadri» g'oyasining moddiy poydevoridir.

TO'RTINCHI MILLIY DASTUR – SUV VA TABIATGA MUNOSABATNI TUBDAN O'ZGARTIRISH

Prezidentimiz global iqlim sinovlarini e'tirof etib, shunday dedi: **«Global iqlim o'zgarishi sharoitida suv va ekologiya masalalari yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois, to'rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirishga qaratiladi. Kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 100 foizga olib chiqamiz. Bu umummilliy marraga aylanadi».**

Davlatimiz rahbari tabiatga munosabatni madaniyat va mas'uliyat mezonlari sifatida



ta'riflab, shunday dedi: **«Tabiatga munosabat xalqning madaniyati, davlatning mas'uliyati va taraqqiyotning sifat ko'rsatkichidir. Shuning uchun mamlakatimizda «Yashil makon» umummilliy harakatini yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Maktab, bog'cha, shifoxona va ko'p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlar jamiyatning daxlsiz boyligi sifatida muhofaza qilinadi. Yaqin yillarda tuman va shahar markazlarida yashillik ko'lamini 30 foizga yetkazamiz».**

Mintaqada suv taqchilligi va haroratning ko'tarilishi xavfi kuchaygan bir sharoitda, suv va tabiatga bo'lgan munosabatni tubdan qayta ko'rib chiqish shunchaki ekologik chora

emas, balki milliy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikning eng asosiy kafolatidir. Barcha ekin maydonlarida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish, lazerli tekislash va avtomatlashtirilgan tizimlarni 100 foiz qamrovga yetkazish suv isrofini keskin kamaytirish bilan birga, hosildorlikni oshirish va yerlarning sho'rlanishini oldini olishga xizmat qiladi.

«Yashil makon» umummilliy harakatini formal tadbirdan chuqur tizimli va madaniy bosqichga olib chiqish jamiyatda ekologik ongni mustahkamlaydi. Maktab, bog'cha, shifoxona va ko'p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlarni «jamiyatning

TO'RTINCHI MILLIY DASTUR — SUV VA EKOLOGIYA



Maqsad: Suv va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirish.



100%

5 yilda suv tejovchi texnologiyalar qamrovi



YASHIL MAKON

Umummilliy harakatni yangi sifat bosqichiga olib chiqish



Maktab, bog'cha, shifoxona va ko'p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlarni muhofaza qilish



30%

Tuman va shahar markazlarida yashillik ko'lamini 30 foizga yetkazish



daxlsiz boyligi» sifatida qonunan muhofaza qilish noqonuniy qurilish va daraxt kesilishiga qarshi qat’iy to’siq bo’ladi. Shahar va tuman markazlarida yashillik ko’lamini 30 foizga yetkazish esa havo haroratini mo’tadillashtirib, aholi uchun qulay, sog’lom va estetik yashash muhitini yaratadi.

Tabiatga munosabat – xalqning madaniyati, degan Prezident fikri chuqur falsafiy mazmunga ega. Darhaqiqat, insonning tabiatga bo’lgan munosabati uning ma’naviy yetukligi, kelajak avlodga bo’lgan mas’uliyati va umuminsoniy ongining oynasidir. Bir tup ko’chat ekish, bir tomchi suvni asrash, atrof-muhitni toza saqlash – bular kichik amallardek ko’rinsa-da, aslida ularning zamirida buyuk ma’naviy mazmun yotibdi. Bu «bizdan keyin ham hayot davom etadi, shu bois zaminni, suvni va havoni sog’lom saqlash bizning burchimiz» degan anglashilgan mas’uliyatdir. Ana shunday ekologik



madaniyatni bolalikdan tarbiyalash to’rtinchi milliy dasturning eng muhim ma’naviy yo’nalishidir.

Suv masalasi Markaziy Osiyo uchun na-faqat ekologik, balki hayotiy-strategik ahamiyatga ega. Iqlim o’zgarishi, muzliklarning erishi va aholi sonining ortishi sharoitida suvni oqilona tejash millat taqdiriga daxldor masalaga aylanmoqda. Shu bois ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalarni 100 foizga yetkazish vazifasining umum-milliy marra sifatida belgilanishi bejiz emas. Bu kelajak avlodning farovon va xavfsiz hayotini ta’minlash yo’lidagi uzoqni ko’zlagan, mas’uliyatli va oqilona qarordir.

«Yashil makon» umummilliy harakati jamiyatni ekologik tarbiya va mas’uliyat ruhida birlashtirgan ajoyib tashabbusdir. Har bir insonning bir tup ko’chat ekishi, uni parvarishlashi va atrof-muhitni asrash kichik amaldek ko’rinsa-da, millionlab odamlarning

birgalikdagi harakati ulkan natijaga aylanadi. Maktab, bog’cha, shifoxona va turar-joy atrofida yashil hududlarni qonuniy muhofaza ostiga olish – bu kelajak avlodga sog’lom va toza muhit qoldirishning kafolatidir. Shahar va tumanlarda yashillik ko’lamini oshirish orqali ham havo tozalanadi, ham issiq kunlarda salqin muhit yaratiladi, ham shaharlar go’zallashadi. Ana shunday ekologik madaniyat ma’naviy yetuk va zamonaviy jamiyatning ajralmas belgisidir.

BESHINCHI MILLIY DASTUR – SUD MUSTAQIL VA QONUN USTUVOR BO’LSIN

Prezidentimiz adolat va taraqqiyot o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni ta’kidlab, shunday dedi: **«Adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o’sish ham, ijtimoiy ishonch ham yuksaladi. Bu borada beshinchi milliy dastur – sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirishdan iborat».**

Davlatimiz rahbari huquqiy tarbiya va xavfsizlik masalalarini qamrab olib, shunday dedi: **«Buning uchun huquqiy tarbiyani maktabdan boshlab aniq tizim asosida yo’lga qo’yamiz. Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy kafolatlarini kuchaytirish**



bo’yicha islohotlarimizni qat’iy davom ettiramiz. Kiberjinoyatchilik, gijohvandlik va odam savdosining oldini olish bo’yicha choralarni yanada kuchaytiramiz. «Yashirin iqtisodiyot», uyushgan jinoyatchilik, ayollar va bolalar huquqini kamsitishga qarshi kurashni yangi bosqichga ko’taramiz».

Sud hokimiyatining mustaqilligi va qonun ustuvorligi shunchaki huquqiy tushuncha emas, balki jamiyatda barqarorlik, fuqarolarning davlat institutlariga bo’lgan ishonchi hamda sog’lom investitsiyaviy muhitning bosh omilidir. Huquqiy tarbiyani maktab bosqichidan boshlab tizimli yo’lga qo’yish yosh avlodda qonunbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabat va o’z haq-huquqlarini to’g’ri anglash madaniyatini tarbiyalaydi. Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish esa xususiy mulk daxlsizligini ta’minlab, iqtisodiy faollikning

erkin va xavfsiz rivojlanishiga zamin yaratadi.

Raqamlashuv davrida kiberjinoatchilik, giyohvandlik va odam savdosi kabi xavflarga qarshi profilaktika va jazo muqarrarligining ta'minlanishi jamiyatda xavfsiz muhitni saqlashga xizmat qiladi. «Yashirin iqtisodiyot»ga qarshi kurash davlat byudjeti va halol raqobat muhitini sog'lomlashtirsa, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini kamsitishga qarshi qat'iy to'siqlar yaratilishi jamiyatda tenglik, mehr-oqibat va ijtimoiy himoyani yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

«Adolat qaror topgan joyda iqtisodiy o'sish ham, ijtimoiy ishonch ham yuksaladi».

Prezidentning bu so'zlari asriy hayotiy haqiqatni ifoda etadi. Tarixda qaysi davlat adolatga tayangan bo'lsa, o'sha davlat gullab-yashnagan, qaysi saltanat zulm va adolatsizlikka yo'l qo'ygan bo'lsa, o'sha inqirozga yuz tutgan. Sohibqiron Amir Temur bobomizning «Kuch adolatda» degan hikmati ana shu haqiqatni asrlar osha bizga yetkazib kelmoqda. Beshinchi milliy dastur aynan ushbu buyuk tarixiy saboqni zamonaviy davlat qurilishining asosiga aylantiradi. Adolatli sud va qonun ustuvorligi – bu nafaqat huquqiy tizim, balki jamiyat barqarorligining, fuqaro ishonchining va iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam poydevoridir.



Huquqiy tarbiyani maktabdan boshlash – bu dasturning eng uzoqni ko'zlagan jihatidir. Yoshlar kichik yoshdan o'z haq-huquqlarini bilib, qonunga hurmat va qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalansa, kelajakda huquqiy davlat va adolatli jamiyatning mustahkam tayanchi bo'ladi. Qonunga itoat etishni, adolatni va halollikni umumiy qadriyat darajasiga ko'tarish – bu uzoq muddatli, lekin eng samarali islohotdir. Zero, qonunni hurmat qiladigan, o'z huquqini himoya qila oladigan va boshqalarning huquqini hurmat qiladigan fuqaro chinakam erkin va mas'uliyatli insondir.

OLTINCHI MILLIY DASTUR – MAHALLA JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY BUYURTMACHISI

Prezidentimiz mahallani jamiyat hayotining boshlang'ich nuqtasi sifatida ta'riflab, shunday dedi: **«Odamlarimizning kayfiyati, oilalarning farovonligi, yoshlarning orzustiagi, tadbirkorlarning tashabbuskorligi, eng avvalo, mahallada namoyon bo'ladi. Shuning uchun oltinchi milliy dastur mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirishga yo'naltiriladi».**

Davlatimiz rahbari boshqaruvdagi tub burilishni aniq bayon etib, shunday dedi:

«Endi davlat dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha yondashuv butkul o'zgaradi. Tuman byudjeti, investitsiya dasturi hamda infratuzilma loyihalari mahalla buyurtmasi asosida ishlab chiqiladi. Bunda fuqarolarning talab va ehtiyoji, mahallaning farovonligi eng asosiy mezon sifatida belgilanadi».

Oilalar farovonligi, yoshlar intilishi va tadbirkorlik tashabbuslari aynan mahalla darajasida shakllanishini e'tirof etish davlat siyosati markazida bevosita inson va uning yashash muhiti turishini anglatadi. Ilgari qarorlar va rejalar faqat yuqori idoralarda tuzilgan bo'lsa, endilikda tuman va shaharlarning rivojlanish dasturlari bevosita mahalladagi



aniq muammolar va takliflar asosida shakllantiriladi. Bu «yuqoridan pastga» modelidan «quyidan yuqoriga» tizimiga o'tish davlat idoralari faoliyatini byurokratiyadan xoli qilib, aholining haqiqiy muammolariga to'g'ridan to'g'ri javob beradigan modelga aylantiradi.

Tuman byudjeti mablag'lari, infratuzilma loyihalari va investitsiya dasturlarining mahalla buyurtmasi asosida taqsimlanishi mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlaydi, jamoatchilik nazoratini kuchaytirib, korrupsion xavflarni keskin kamaytiradi. Natijada, mahalla chinakam xalq

hokimiyatchiligi institutiga aylanib, barqaror ijtimoiy va iqtisodiy yuksalishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi.

Mahalla o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan noyob ijtimoiy instituti, milliy o'zligimizning tirik ifodasidir. Bu yerda qo'shnichilik, o'zaro yordam, hashar, to'y va ma'rakalarda yelkadoshlik kabi ezgu qadriyatlar avloddan avlodga o'tib keladi. Prezidentimiz aynan ana shu milliy institutni davlat boshqaruvining va taraqqiyot rejalashtirishning markaziga qo'yishi chuqur milliy va hayotiy yondashuvdir. Chunki odamning quvonchi ham, tashvishi ham,

ehtiyoji ham avvalo o'z mahallasida, o'z ko'chasida namoyon bo'ladi. Demak, taraqqiyotni ham aynan shu nuqtadan boshlash eng to'g'ri va samarali yo'ldir.

Mahallani **«jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisi»**ga aylantirish orqali davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabat tubdan o'zgaradi. Endi fuqaro davlat qarorlarining passiv ijrochisi emas, balki ularning faol tashabbuskori va buyurtmachisiga aylanadi. Inson o'z hududidagi o'zgarishlarga bevosita ta'sir ko'rsata olsa, u o'zini chinakam egadek, mas'ul fuqarodek his qiladi. Ana shu daxldorlik va mas'uliyat tuyg'usi chinakam fuqarolik jamiyatining, kuchli va barqaror davlatning mustahkam asosidir.

«Ochiq byudjet» kabi tashabbuslar mahalla va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini yangi bosqichga olib chiqdi. Endi fuqarolar o'z ko'chasi, maktabi, bog'chasi yoki mahallasi uchun qaysi loyiha muhimroq ekanini o'zlari muhokama qilib, ovoz berib tanlaydi. Bu – xalq hokimiyatchiligining chinakam, amaliy ko'rinishidir. Inson o'z solig'ining qayerga sarflanayotganini ko'rsa, byudjet mablag'lari taqsimotida o'z fikri hisobga olinayotganini his qilsa, u davlatga va jamiyatga nisbatan ishonch va mas'uliyat bilan qaraydi. Ana shunday ochiqlik va

shaffoflik korrupsiyaga qarshi eng samarali to'siq, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning esa eng ishonchli yo'lidir.

YETTINCHI MILLIY DASTUR – TINCHLIK VA DO'STLIK DIYORI, BAG'RIKENG O'LKA

Prezidentimiz mamlakatimizning xalqaro nufuzi va bag'rikengligini ulug'lab, shunday dedi: **«Yettinchi milliy dastur O'zbekistonning tinchlik va do'stlik diyori, bag'rikeng o'lka sifatidagi nufuzini har tomonlama yuksaltirishdan iborat. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a'zolari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bugungi notinch zamonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligidir».**

Davlatimiz rahbari faol va muvozanatli tashqi siyosat natijalarini bayon etib, shunday dedi: **«Mamlakatimiz bilan diplomatik munosabat o'rnatgan davlatlar soni qariyb 170 taga yetdi. O'zbekistonni xalqaro diplomatiyaning muhim markaziga aylantirish uchun ko'pqirrali, vazmin va muvozanatli tashqi siyosatni davom ettiramiz».** Prezidentimiz mamlakatimizning global maydondagi yangi yetakchilik maqomini alohida



OLTINCHI MILLIY DASTUR – MAHALLA



Maqsad:
Mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish.

Asosiy mezon:



Fuqarolarning talab va ehtiyojlari hamda mahalla farovonligi.

Yangi yondashuv:



Tuman budjeti



Investitsiya dasturlari



Infratuzilma loyihalari



mahalla buyurtmasi asosida ishlab chiqiladi.



ta'kidlab, shunday dedi: **«Mamlakatimiz 2027–2029-yillarda Qo'shilmaslik harakati-ga ilk marotaba raislik qiladi. Dunyodagi 120 dan ortiq davlatni birlashtirgan ushbu global tuzilma samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni faol ilgari sura-miz».**

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiyaning bir oiladek tinch-totuv yashashi jamiyatning

eng bebaho boyligidir. Prezidentimiz buni **«xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligi»** deb ta'riflar ekan, u milliy birdamlikni eng muhim strategik resurs sifatida bahola-moqda.

Global miqyosda geosiyosiy keskinlik va diniy ixtiloflar kuchaygan bugungi sharoit-da ichki hamjihatlikni saqlash milliy o'zlik, ijtimoiy jipslik va barqaror rivojlanishning bosh kafolati bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik muhiti tarixiy darajaga ko'tarildi, qo'shni Afg'oniston bo'yicha olib borilayotgan faol va insonparvar siyosat butun mintaqada uzoq muddatli xavfsizlikni ta'minlash-ga qaratilgan.

Mamlakat bilan diplomatik mu-nosabat o'rnatgan davlatlar sonining 170 taga yaqinlashishi milliy suve-renitet va xalqaro e'tirofning yuksak darajasidan dalolat beradi. O'zbekis-tonning 2027–2029-yillarda Qo'shil-

maslik harakatiga raislik qilishi esa BMTdan keyingi eng yirik siyosiy platformaga rahbarlik qilish orqali mamlakatimizning global kun tarti-bini shakllantirishdagi ovozini kes-kin oshiradi. Bu maqom orqali O'zbekiston tinchlikparvarlik, global tenglik va barqaror rivojlanish ta-moyillarini ilgari surib, jahon hamjamiyatida ishonchli va xolis muloqotchi sifatidagi o'rnini mus-tahkamlaydi.

O'zbekistonning tashqi siyosat-dagi muvaffaqiyatlari – bu xalqaro maydonda mamlakatimiz obro'-e'tiborining oshishi, uning so'zi va tashabbuslari eshiti-lishi demakdir. Markaziy Osiyoni ziddiyatlar mintaqasidan hamkorlik va do'stlik mako-niga aylantirish, qo'shni davlatlar bilan asrlar davomida yechilmay kelgan muammolarni muzokara va o'zaro hurmat yo'li bilan hal etish – bu O'zbekiston diplomatiyasining tarixiy yutug'idir. Aynan shunday oqilona, vazmin va muvozanatli tashqi siyosat mam-lakatimizning tinch, barqaror va farovon rivojlanishi uchun eng qulay tashqi muhitni ta'minlamoqda.

Qo'shni Afg'oniston bo'yicha olib bori-layotgan konstruktiv va insonparvar siyosat

BIRLASHIB, BUYUK TARIX YARATAMIZ!



O'zbekiston tashqi siyosatining uzoqni ko'z-lagan, donishmand yondashuvini namoyish etadi. Afg'onistonni yakka-lash emas, aksin-cha uni mintaqaviy iqtisodiy va infratuzilma loyihalariga jalb etish, bu mamlakat xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatish butun Markaziy va Janubiy Osiyoda uzoq mud-datli tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, qo'shning tinchligi – o'z tinchliging, qo'shning farovonligi – o'z faro-vonliging demakdir. Ana shunday mas'u-liyatli va oqilona siyosat O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi va ishonchli hamkor sifatidagi obro'sini yanada mustahkam-lamoqda.

I YETTINCHI MILLIY DASTUR – TINCHLIK, DO'STLIK VA BAG'RIKENGLIK



Asosiy g'oya:

“Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – «xalqimizning oltin fondi, bebaho boyligi».”



NUTQNING BOSH G'OYALARI VA TARBIYAVIY- MA'NAVIY AHAMIYATI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mustaqilligimiz o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan nutqini yaxlit bir butunlik sifatida tahlil qilsak, unda bir necha bosh g'oya qizil ip bo'lib o'tganini ko'ramiz. Bu g'oyalar nafaqat bugungi kun siyosatini, balki millatning kelajakka bo'lgan qarashi va ma'naviy yo'nalishini belgilaydi. Quyida ushbu bosh g'oyalar va ularning tarbiyaviy-ma'naviy ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

INSON QADRI – BARCHA ISLOHOTLARNING O'ZAGI

Nutqning boshidan oxirigacha takror-takror yangragan asosiy g'oya «inson qadri»dir. Iqtisodiy islohotlar ham, ta'lim va tibbiyot sohasidagi o'zgarishlar ham, yetti milliy dastur ham – bularning barchasi markazida inson, uning qadr-qimmati, erkinligi va farovonligi turadi. Bu Yangi O'zbekiston siyosatining o'ziga xos falsafasi va eng muhim farqli jihati. Davlat uchun inson vosita emas, balki bosh maqsaddir. Ana shunday insonparvar yondashuv jamiyatda mehr-oqibat, adolat va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlaydi.

Inson qadrini ulug'lash g'oyasi, ayniqsa, tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Yosh avlod davlat uning qadrini ulug'layotganini, unga ishonayotganini va katta umid bog'layotganini his qilsa, u ham o'z navbatida jamiyatga, Vatanga va boshqa insonlarga nisbatan mas'uliyat va mehr tuyg'usi bilan yashaydi. Demak, «inson qadri uchun» g'oyasi – bu nafaqat siyosiy tamoyil, balki butun jamiyatni ma'naviy yuksaltiradigan tarbiyaviy dasturdir.

TARIX VA KELAJAK UYG'UNLIGI

Nutqning yana bir muhim xususiyati unda o'tmish, bugun va kelajakning uzviy birlikda talqin etilishidir. Prezidentimiz uch ming yillik davlatchilik tarixidan, buyuk allomalar va jadid bobolarimiz merosidan so'z ochib, ularni bugungi islohotlar va ertangi rejalar bilan bog'laydi. Bu millat o'zining tarixiy ildizlarini unutmagan, ammo o'tmishda qotib qolmagan, aksincha undan kuch va ilhom olib oldinga intilayotganini ko'rsatadi.

Ana shunday tarixiy uzviylik tuyg'usi yosh avlod tarbiyasida nihoyatda muhim. O'z

tarixini, ajdodlarini va milliy qadriyatlarini biladigan, ular bilan faxrlanadigan yoshlar mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'ladi. Turli yot va buzg'unchi g'oyalar ta'siriga berilmaydi, o'zligini yo'qotmaydi. Shu bois Prezidentimizning tarixga bot-bot murojaat qilishi yoshlarda milliy o'zlik, vatanparvarlik va tarixiy xotirani mustahkamlashga qaratilgan teran ma'naviy strategiyadir.

YOSHLAR – MILLAT KELAJAGINING HAL QILUVCHI KUCHI

Nutqda yoshlar masalasi alohida mehr va e'tibor bilan yoritilgan. Prezidentimiz yoshlarni «**eng katta boyligimiz**», «**ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi**» deb ta'riflaydi, ularga «**aziz farzandlarim**» deb otalarcha murojaat qiladi. Bu davlat rahbari bilan yosh avlod o'rtasidagi munosabatning naqadar samimiy va iliq ekanini ko'rsatadi. Yoshlarga ta'lim, sport, tadbirkorlik va ijod sohalarida yaratilayotgan keng imkoniyatlar millat kelajagiga qilinayotgan eng katta sarmoyadir.

Yoshlarga bo'lgan ishonch va e'tibor ularda javobgarlik, intilish va vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptiradi. O'ziga ishonilgan, qadrlangan va qo'llab-quvvatlangan yoshlar ana shu ishonchni oqlash uchun bor kuchi bilan harakat qiladi, ilm oladi, kasb egallaydi, vatani sha'ni uchun dunyo maydonlarida kurashadi. Demak, yoshlarga e'tibor – bu millat kelajagini kafolatlaydigan eng ishonchli yo'ldir.



GLOKAL YONDASHUV – MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIKNING UYG'UNLIGI

Nutqda yana bir muhim yondashuv milliy qadriyatlar bilan umuminsoniy taraqqiyot mezonlarining uyg'unlashtirilishidir. Bir tomondan, Prezidentimiz milliy o'zlik, ona tili, milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi va ma'naviyatni ulug'laydi. Ikkinchi tomondan, u xalqaro ta'lim standartlari, ilg'or texnologiyalar, jahon reytinglari va global hamkorlikni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ana shu ikkisiining uyg'unligi Yangi O'zbekiston taraqqiyot modelining o'ziga xos va kuchli jihati.

Bunday yondashuv yosh avlodni ham milliy, ham zamonaviy ruhda tarbiyalashga xizmat qiladi. Maqsad o'z milliy o'zligini saqlagan, ona tili va qadriyatlarini qadrlaydigan, ayni paytda zamonaviy bilim, ko'nikma va keng dunyoqarashga ega bo'lgan avlodni voyaga yetkazishdir. Ana shunday avlod milliy ildizlarga mustahkam tayanib, global maydonda munosib raqobatlasha oladigan, ham vatanparvar, ham zamonaviy insondir. Bu Uchinchi Renessans bunyodkorining chinakam qiyofasidir.



XALQ VA DAVLAT YAGONA MAQSAD YO'LIDA BIRLASHDI (xulosa o'rnida)

Prezidentimizning mustaqilligimiz o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan nutqi butun bir xalqning o'tgan yo'lga iftixor, bugungi kuniga ishonch va ertangi kuniga qat'iy umid bilan qarayotganini yaqqol namoyish etdi. Davlatimiz rahbari ana shu ishonchni bir jumlada nihoyatda ta'sirli ifoda etib, shunday dedi: **«Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo'lamiz».**

Bu oddiy bir jumla emas, bu butun bir millatning harakat falsafasi, uning tinimsiz yuksalishga bo'lgan irodasidir. Prezidentimiz o'ttiz besh yillik tajribadan chiqarilgan eng muhim saboqni shunday umumlashtirdi: **«O'ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot yo'limiz bizga bir haqiqatni o'rgatdi: xalq va davlat yagona maqsad yo'lida birlashib,**

astoydil harakat qilsa, zabt etib bo'lmaydigan marraning o'zi yo'q. Bunday buyuk qudratga ega xalq va davlatni yenga oladigan kuchning o'zi yo'q».

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonda erishilayotgan yutuqlarning bosh omili davlat va xalqning bir-birini tushunib, hamkorlikda ishlay boshlaganidadir. Ilgari ko'p ishlar faqat yuqori idoralarning ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bugun «davlat xalq uchun» tamoyili asosiy o'ringa chiqdi. Davlat odamlarning dardini eshitib, ularga qulay sharoit va imkoniyatlar yaratmoqda, fuqarolar esa bu e'tiborni his qilib, islohotlarga ishonch bilan yondashmoqda. Davlat sharoit yaratuvchi, xalq esa uni hayotga ko'chiruvchi kuch sifatida bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilmoqda.



Bu birlik va uyg'unlik, ayniqsa, kundalik hayotda yaqqol ko'rinadi. Davlat har bir fuqaroga yo'l ochmoqda, tadbirkorga kredit, yoshlarga ta'lim grantlari bermoqda, xalqimiz esa bu imkoniyatlardan foydalanib, yangi korxonalar qurmoqda, ilm-fan va sportda jahon arenalarini zabt etmoqda. «Ochiq byudjet» kabi loyihalar orqali fuqarolar o'z ko'chasi, maktabi yoki mahallasi uchun nima muhimligini o'zlari hal qilib, «bu mening yurtim, mening mahallam» degan daxldorlik va mas'uliyat hissini namoyon etmoqda.

Prezidentimiz xalqimizga bo'lgan cheksiz ishonchini va buyuk kelajakka qat'iy e'tiqodini shunday ifoda etdi: **«Biz yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va buyuk kelajagimizni birgalikda barpo etamiz! Ishonchim komil, matonatli, mard va olijanob xalqimiz o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadlarga albatta yetadi. Vatanimizning oltin davrini, yangi buyuk tarixini albatta barchamiz birgalikda yaratamiz!»**

Ana shu so'zlarda bir davlat rahbarining o'z xalqiga bo'lgan mehri, ishonchi va ulug' orzulari mujassam. Davlatimiz rahbari o'z

nutqini shukronalik va ulugʻ tabrik bilan yakunladi: **«Bizga mustaqillik neʼmatini bergan Parvardigorimizga cheksiz shukronalar boʻlsin! Istiqlolimiz ijodkori va haqiqiy bunyodkori boʻlgan xalqimizga shon-sharaflar boʻlsin! Yurtimiz tinch, xonadonlarimiz obod va farovon boʻlsin! Yashasin Oʻzbekiston Respublikasi! Yashasin Oʻzbekiston xalqi!»**

Prezidentning yoshlarga otalarcha murojaati, ajdodlar merosiga taʼzimi, bugungi yutuqlardan faxrlanishi va ertangi kunga boʻlgan qatʼiy ishonchi – bularning barchasi nutqni chinakam samimiy, insoniy va tantanali ruh bilan sugʻoradi. Bu nutqda quruq raqamlar va rasmiy bayonotlar emas, balki bir xalqning qalb urishi, uning orzu-umidlari va buyuk kelajakka intilishi jaranglaydi. Har bir yurtdoshimiz ushbu nutqni oʻqir ekan, undan oʻz hayotini, oʻz oilasi farovonligini

va oʻz farzandlari kelajagini koʻradi. Mana shu Prezident nutqining eng kuchli va taʼsirli jihatidir.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning mustaqilligimiz oʻttiz besh yilligiga bagʻishlangan ushbu nutqi oʻtmish bilan kelajakni, ajdodlar merosini avlodlar masʼuliyati bilan bogʻlagan, har bir yurtdoshimizni ulugʻ maqsadlar sari birlashtirgan tarixiy hujjatdir.

Oʻzbekiston oʻzining oltin davriga qadam qoʻymoqda va bu davrni, bu yangi buyuk tarixni barchamiz – davlat va xalq, otalar va farzandlar, ustozlar va shogirdlar birgalikda yaratamiz. Zero, yagona Vatan, yagona xalq boʻlib birlashgan millatni hech qanday kuch toʻxtata olmaydi. Yashasin ozod va obod Vatanimiz – Oʻzbekiston! Yashasin buyuk va matonatli oʻzbek xalqi!



MUNDARIJA

KIRISH	3
YANGI OʻZBEKISTONNING KUCH-QUDRATINI NAMOYON ETADIGAN CHINAKAM TARAQQIYOT MARKAZI.....	8
BUYUK ISTIQLOLIMIZNING UCH MING YILLIK ILDIZLARI	14
«INSON QADRI UCHUN» GʻOYASI DAVLAT SIYOSATI MARKAZIDA.....	23
YANGI AVLOD MUTAXASSISLARI.....	34
FAZONI ZABT ETAYOTGAN OʻZBEKLAR.....	46
XALQNING UMRI UZAYMOQDA.....	50
BEBAHO MEROSGA MUNOSIB ISHLAR.....	55
ERTANGI KUNIMIZNING HAL QILUVCHI KUCHI	61
OʻZBEK XALQI TARAQQIYOTNING MUTLAQO YANGI DAVRIGA KIRMOQDA.....	70
NUTQNING BOSH GʻOYALARI VA TARBIYAVIY-MAʼNAVIY AHAMIYATI	90
XALQ VA DAVLAT YAGONA MAQSAD YOʻLIDA BIRLASHDI (xulosa oʻrnida)	92

UO'K: 908(575.112)
KBK: 26.89ya6
B 60

«Birlashib, buyuk tarix yaratamiz!» Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqiga sharh [Matn] – T.: «Ma'naviyat», 2026. – 96 b.

ISBN 978-9943-04-552-1

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

BIRLASHIB, BUYUK TARIX YARATAMIZ!

**PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN
TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQIGA SHARH**

Toshkent «Ma'naviyat» 2026

Tuzuvchilar: O.Davlatov, O.Xasanov, M.Quronov, A.Yunusov,
A.Tashanov, K.To'rayev

Muharrirlar: L.Tangriyev, Z.Qudratov

Musahhih Sh.Nazarova

Dizayner va sahifalovchi Sh.Sohibov

© «Ma'naviyat» nashriyoti, 2026. Litsenziya №1577389, 12.05.2026-yilda berilgan.
Bosishga 31.08.2026-yilda ruxsat etildi. Bichimi 50x60 $\frac{1}{12}$. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 13,57. Nashr tabog'i 12,72. 15 000 nusxa. Buyurtma № 26-102.

«Ma'naviyat» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi. 100047. Toshkent. Taraqqiyot 2-berk ko'cha, 2-uy.